

жадид

2025-yil 14-fevral

№ 7(59)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

# Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadid\_uz



@Jadidmediauz



@Jadid\_rasmiy



@Jadid\_uz

TAFSILOT

## HUDUD BILMAS DAHOLIK

QAROR

7-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy ijodiy merosini yurtimiz va jahon miqyosida keng targ'ib qilish hamda Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili"ni yuqori darajada tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi.

Unda Navoiy ijodini o'rganishni yangi bosqichga ko'tarish ko'zda tutilgan. Buning uchun uning merosini xalqaro miqyosda keng targ'ib etish, asalarini yangi ilmiy qarash, texnologiya, uslub va usullar asosida o'rganish, shoirni xalqqa va dunyoga tanitishning ham yangi-yangi yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqishga to'g'ri keladi.

Navoiy – butun turkiy dunyodagi eng buyuk qalam sohibi. Ungacha ham, undan keyin ham turkiy tilda bunday ulkan va yuksak darajadagi meros yaratgan shoir yoki adib – boshqa yo'q. Uning asalarli bizga bugungi maqsadlarimizga mos ravishda g'oyalarn beradi. "Komil inson qanday bo'lishi kerak?" degan masalani olaylik, "Xamsa"dagi davlatchilik, davlatni boshqarish, davlat va xalq o'tasidagi munosabatlardan talmuiniga diqqat qilaylik. Hammasidan umumiylar tarzda davlatsiz biron-bir xalq baxtli bo'lmagligi g'oyasi kelib chiqadi.

Qarorda yangi-yangi taddiqotlar yaratish, bu buyuk merosning ochilagan qirralarini kashf etish, shoir asalarini va ularni o'rganishga bag'ishlangan taddiqotlarni boshqa tillarga o'girish, xorijiy mamlakatlar navoiyshunoslar kitoblarini o'zbek tiliga tarjima qilish vazifalari belgilangan.



Eng muhim, qarorda ko'zda tutilgan maqsadlarda shu xatti-harakatlarimiz orqali xalqimizni tobora Navoiyga yaqinlashtirishdek ezgu maqsad mujassam.

"Yashil makon" umummilliyligi loyihasi dorasida Navoiy viloyatinining barcha shahar va tumanlarida shoir hayoti va ijodiy faoliyatini bilan bog'liq holda so'lim bog' va xiyobonlar, yashil

hududlar tashkil etildi. Navoiy shahrida barpo etilayotgan "Yangi O'zbekiston" bog'ida Navoiy haykali va "Xamsa" dostonlari asosidagi ramziy darvozalar o'rnatiladi, memorial muzey barpo qilinadi.

Har yili alohida reja asosida Navoiy ijodiga bag'ishlab ijodiy kechalar, tanlovlari, kitoblar nashri va taqdimoti hamda ilmiy-adabiy

anjumanlar o'tkaziladi, bu tadbirdalarga talabalar, yosh ijodkorlar va ijtidori o'quvchilarin jalb qilish, ularni munosib rag'battantirish orqali "Navoiy viloyati tajribasi" yo'lda qo'yiladi.

2025-yil 10–15-oktyabr kunlari Navoiy davlat universitetida "Alisher Navoiy ilmiy-adabiy merosining umumbashariyat ma'naviy va ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkaziladi.

"Navoiy, Navoiy" deymiz-u, bu zot haqida sho'ro mafkurasi asosida olin-gan badiylar filmdan tashqari kinomiz yo'q. Qarorda esa "Navoiy kometalluriya kombinat" aksionerlik jamiyatining shoir hayoti hamda ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan badiylar filmi moliyalashtirish to'g'risidagi taklifi ma'qillandi.

Qaror ijrosi faqat Navoiy viloyatidagi amalga oshadigan tadbirlardan iborat bo'lmaydi. Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilinoshining ta'sirlari – tebaranishlari mamlakatimizning baracha mintaqalarida aks sado beradi.

### TABRIK

Mazkur qarorda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Oly ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifikat markazi, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamaat fondi, Navoiy viloyati hokimligi hamda keng jamaatchilikning Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi munosabati bilan Navoiy viloyatida 2025-yilni "Alisher Navoiy yili" deb nomlash to'g'risidagi taklifi ma'qullandi.

(Davomi 2-sahifada). ➤

INJU

Zahiriddin Muhammad

B O B U R

\*\*\*

Bir pari men telbani husnig'a moyil qilg'udek,  
Ko'zum ichra yer tutub, ko'nglumda manzil qilg'udek.

Ko'nglum-u ko'zum yuziga vola-yu hayron bo'lub,  
Jonima yuz ming g'am-u mehnatni hosil qilg'udek.

Notavon ko'nglumg'a ishq qayg'uni kelturgudek,  
Aysh-u ishratni ko'nguldin qayg'u zojil qilg'udek.

Qilmadi Farhod-u Majnun o'zni rasvo men kibi –  
Kim, bu nav' ish – ish emastur hech oqil qilg'udek.

Ul pari ishqida Bobur jon berib, ey ahli ishq,  
Ishq atvorini ishq ahlig'a mushkil qilg'udek.




Kamoliddin Behzod chizgan suvrat. XVI asr.

ABADIYAT ORALAB...

"BOBURNOMA"

O'QIYOTGAN OTABEK

Abdulla Qodiriyning badiyl mahoratini, asarlarini umrboqiyligini barcha birdeklar etidi. Zero, bunday epik ko'lalarning yuzaga kelish omillari, betakror poetikaning tub ildizi hamda ta'sirlanish asoslarini kuzatish foydalidir.



"BOBURNING OCHUQ FIKRLIK..." ASARI

"O'tkan kunlar" romanining "Majburiyat" faslidida shunday episod bor: "Kechlik oshni o'tkazgach, Hasanali o'z hujrasidan kiyinib chiqdi-da Otabek yonig'a kirdi. Otabek "Boburnoma" mutolaasi bilan mash'ul edi". Hasanali asl niyatini bildirmay "hammonga borish" uchun ruxsat so'raydi. Otabek ko'zini kitobdan uzmay: "Yumishim yo'q, boravingingiz", deb javob beradi. Mashhur kitoblar orqali qahramonni baland maqomga ko'tarish, ularning ma'naviy olamiga urg'u berish, aniq detal vositasida obrazga mahobat bag'ishlash dunyo abadiyotida ham, o'zbek mumtoz abadiyoti tarixida ham, shuningdek, Abdulla Qodiri ijodiy biografiyasida ham mavjud abadiy hodisadir.

(Davomi 4-sahifada). ➤

MILLAT FIDOVYLARI

"MARD YIGIT EDI...

JUVONMARG KETDI"

Yurt osmonidan tuman arimagan bir palla. Bu tuman – zulm va johillik soyasi, bu tuman – ma'rifikat nurlarini o'chireshga urinayotgan mustabidlarning sharpasi edi. Ana shunday og'ir zamonda ham o'z a'moliga sodiq ajdodlarimiz bor ediki, ular yashab o'tgan mash'um yillar va yo'llar to'g'risida so'z ochsak, bugungi yoshiarga cho'pchakdek tuyular balkim. Biroq hali o'ttiz-qirq orasi orzulari ortidan umri tahlikalarda kechgan murakkab taqdirlardan navbatdagisi haqida hikoya qilamiz.

Usmonxo'ja Eshonxo'jayev.

Bolalik chog'idan ilmga tashna yana bir qismat; xalqni savoldi, ongi qilish, millatni zulmatdan olib chiqish maqsad bilan bedorlangan yana bir jadid; ma'rifikat yo'lida o'zini baxsh etgan yana bir fidoyi, yana bir qurbon...

Usmonxon 1899-yil 14-oktyabrda Andijonda tavallud topgan, istiqlol uchun shonli va qonli kurash yo'lini bosib o'tgan. Andijon, Toshkent, Samarcand, Moskva, Shimoliy

(Davomi 7-sahifada). ➤

ONAJONIM – TABIAT

JONLI  
OLAMNING  
HAYOT ZANJIRI



O'zFA zoologiya instituti direktori, biologiya fanlari doktori, professor Baxtiyor Xolmatov bilan suhbat

- Dunyo miqyosida yiliga 40 milliard dollar zarar keltirayotgan hasharot...
- Mahalliy turdoshlariga qirg'in keltirgan "kelgindi" qush...
- Jabr qilguvchi ham, jabrdiyda ham o'zimiz.

Baxtiyor Rustamovich, Prezidentimizning 2017-yil 4-sentyabrdagi qaroriga asosan O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Botanika va zoologiya instituti negizida Botanika va Zoologiya institutlari tashkil qilingan edi. Bu soha rivojiga qanday ta'sir ko'rsatdi?

O'zbekistonga zoologiya tushunchasi fundamental fan sifatida 1950-yilda kirib kelgan. 2012-yilga kelib Botanika va Zoologiya institutlari birlashtirildi. Besh yil davomida bu ikki yo'nalish vakillari bir institutda faoliyat olib borishdi. 2016-yilning 30-dekabrida muhtaram Prezidentimiz ilm-fan namoyandalarini bilan uchra-shuvli chog'ida shu masalaga ham alohida e'tibor

qaratib, Botanika va Zoologiya institutlarini qayta tashkil qilish g'oyasini ilgari surdi. Shundan so'ng yurtimizda zoologiya fanini rivojlantirish istiqbollari kengaydi va nufuzli xalqaro ilmiy markazlar bilan hamkorlik ham yangi bosqichga ko'tarildi.

Hayvonot dunyosi butun olamga tegishli. Shu ma'noda zoologiya fanining o'rni va imkoniyatlari chegara bilmaydi. Biz keyingi paytlarda juda ko'p yutuqlarga erishdik. Ayniqsa, o'tgan yetti yil mobaynida institutimiz olimlari tonmonidan shu chog'acha fanga noma'lum bo'lgan sakkizta yangi hasharot turi kashf etilgani ham ilmiy tadqiqotlarimiz jahon andozalariga mos ravishda amalga oshirayotganidan dalolat beradi.

- Institutning asosiy vazifasi nimadan iborat?

- Yurtimizda 11 mingdan ortiq hayvon turi ma'lum. Ularning 10 mingdan ortiq'ini umurtqasiz jonzotlar, qolgan 750 turini umurtqali hayvonlar tashkil etadi.

(Davomi 6-sahifada). ➤

# HUDUD BILMAS DAHOLIK

Boshlanishi 1-sahifada.

Qaror ijrosini ta'minlash boshlandi. Navoiy viloyati hokimligi Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi, Olyi ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda 2025-yil 8-9-fevral kunlari buyuk bobomiz tavalludining 584 yilligi munosabati bilan mahalliy va xorijiy olimlar, jodkor ziyyolar, keng jamoatchilik ishtirokida "Alisher Navoiy va Sharq Renessansi" an'anaviy xalqaro IV simpoziumini yuqori saviyada o'tkazdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev simpozium qatnashchilariga tabrik yo'lladi. Unda bu buyuk zot goldirgan merosning ahamiyati haqida so'z yuritilib, jumladan, shunday deyiladi: "Ayniqsa, mutafakkir ajodidimizning turli xalqlar or'tasida tinchlik va do'stlilik mustahkamlash, basharyatning yorug' kelajagini birligalikda qurishga chorlaydigan g'oya va qarashlarining ahamiyati hozirgi tahlikali davrda tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda biz Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansni barpo etish jarayonlarda Alisher Navoiy asoslarini o'zimiz uchun bitmas-tuganmas kuch-g'ayrat va ilhom manbayi deb bilamiz. Shu bois bu noyob ma'naviy boylikni chuqur organish va targ'ib etish doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi".

## TASHABBUS

Mazkur simpoziumda 20 davlatdan olimlar, O'zbekistonimizning turli mintaqalaridan kelgan tadqiqotchilar ishtirok etdi. Mehmon sifatida mamlakatimizning taniqli adabiyot va san'at ahllari tashrif buyurdi. Tadbirlarda atoq xonandalar qo'shiqlar aytdi, shoirlar she'r o'qidi.

Viloyatning turli shahar va tumanlarida poytaxtdan kelgan taniqli ziyorlar ishtirokida tashkil etilgan navoiy-xonlik tadbirilari o'tkazildi.

Xullas, Navoiy hammani Navoiyga yig'di. Navoiy viloyati hokimligi tonomidan "Alisher Navoiy va Sharq Renessansi" an'anaviy xalqaro simpoziumini har yili Navoiy shahrida o'tkazish tashabbusi ilgari surildi va bu qo'llab-quvvatlandi.

Shu tariqa har yili 9-fevralda jahon navoiyshunoslari Navoiy shahrida yig'iladi, bir-biriga o'ziga xos tarzda hisobot bergan bo'ladi, o'zaro fikr almashiladi, yangi-yangi rejalor tuzib olinadi. Shu tariqa Navoiy viloyati navoiyshunoslikning o'ziga xos brendiga aylanadi.

## TURKPARVARLIK

Turk dunosida Navoiydan turkparvarroq zot o'tgani yo'q. Shuning uchun "Navoiy va turk dunoysi" degan katta bir mavzuni o'ttaga qo'yib, tadqiq etish davri keldi. U ko'p-ko'p yo'nalishlar asosida o'rganishni taqozo etadi.

Navoiy "Qutadg'u biling" va "Devonu lug'otit turk" dan bexabar bo'lgan. Bilganida bu ikki zotga ta'rif-u tavsilidan bir buyuk haykal yaratgan bo'lari edi.

Turkiy til olamini XV asrgacha ham, undan keyin ham, ehtimol, boshqa hech kim Navoiyning o'zichalik kiftini keltirib ta'riflamagan: "...Olame nazarg'a keldi, o'n sekkiz ming olamdin ortuq (!!!), anda zeb-u ziynat va siyehre tab'ga ma'lum bo'ldi, to'qquz falakdin ortuq, anda fazl-u rif'at, maxzane uchradi, durlari kavokib gavharlaridin raxshandaroq va gulshane yo'lutqi, gullari sipehr axtaridin duraxshandaroq, harimi atrofi el ayog'i yetmakdin masun va ajnos g'aroyibi g'ayr ilgi tegmakin ma'mun. ...Ammo maxzanining yiloni xunxon va gulshanning tikoni behad-u shumor". Shunga qaramay, Navoiy shu gulzordan gul terdi. Terganda ham, bu guldastasini na forsiy, na turkiy she'riyat yetgan baland cho'qqilarga olib chiqdi: "...Umidim uldur va xayolimg'a andoq kelurkim, so'zum martabasi avjdin quy'i inmagay va bu tartibim kavkabasi a'lo darajadin o'zga yerni beganmagay".

Tilning ham, adabiyotning ham chinakamiga kamol topishi uchun hokimiyat shu til va adabiyotning egasi hisoblangan xalqning o'z qo'lida bo'lishi, bu sohalarni taraqqiyotini hammadan burun hukmoni siyosat ko'proq istashi kerak. Bu – Navoiyning fikri. U hukmonlik arablarni qo'lida bo'linda arab, forslarga o'tganda fors va turklarga nasib etganda turk adabiyoti ravnaq topdi. Ammo: "...Forsiy mazkur bo'g'an shuaro muqobalasida kishi paydo bo'imadi, bir Mavlonio Lutfiydin o'zgakim, bir necha matla'lari borkim, tab' ahli qoshida o'qusa bo'ur". Navoiy shunday darajada bo'lgan adabiyoti yuksak cho'qqiga ko'tardi, buni sezib, Lutfiy bor merosini uning biriga ko'mashlashga arzishini tan oldi.

Qilich bilan qalamni bir ko'z bilan ko'rishning aslo iloji yo'q. Temur bo'limganida Husayn, Husayn bo'limganida Navoiyning hozirgidek yuksaklikda tasavvurga keltirish amrimahol. Navoiy:

Olibmen taxi farmonimg'a oson,  
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson,



"Xuroson", – demakim, Sheroz-u Tabriz, –  
Ki qilmishdr nayi kilkim shakarrez,

– deganida, asosan, Temur egallagan hududlarni qalam bilan olganini qayd etgan. Xullas, Navoiyning qalam Temurning qilichi bilan yo'nigan bo'lsa, ne ajab!

Shoirning:

Turk nazmida chu men tortib alam,  
Ayladim ul mamlakatni yakqalam,

– baytidagi "yakqalam"ning ikkita ma'nosи bor: birinchisi – xalqni bi buyruqqa bo'ysunadigan qilmog; ikkinchisi – xalqni bi adaptib til atrofida birlashirmoq.

## ELPARVARLIK

Dunyoda Navoiychalik elparvar shoir topilmasa kerak. Navoiy turkiy tilda ilgari hech qachon ishlatalmagan yangi qofqa silsilalarini yaradti. Bu she'riyada ilgari hech qachon radif bo'lib kelmagan so'zlarni radifiga olib, g'azallar bitdi. Ilgari hech qachon ishlatalmagan ko'p-ko'p sof turkiy so'zlarni milliy adapbiyotga olib kirdi. Oldin hech qachon qo'llanmagan ko'p-ko'p forsy va arabiy so'zlarni milliy til va adapbiyot mulkiga aylantirdi. Qofiyada ilgari hech ishlatalmagan ko'plab turkiy so'zlarni mahorat bilan forsiy va arabiy kalimalarga ohangdosh qolib istifoda etdi. Shu tariqa u shundoq ham forsiy va arabiy so'zlar nisbatan ko'p ishlatalib kelingan turkiy tilni yanada sintezlashtirdi, ya'ni undagi forsiy-arabiy qatlarni haddan ziyyod kuchaytirdi. Xohlagan forsiy yoki arabiy so'zni turkiy tilda ham bermalol qo'llash mumkinligini amalan haddi a'losida isbotladi. Shunday g'azzallari ham borki, unda turkiy va forsiy so'zlar miqdori teng keladi. Bugun ham tilimiz forsiy-arabiy so'zlar eng ko'p ishlatalidigan yagona turkiy til hisoblanadi.

Navoiy fe'l so'z turkumi jihatidan turkiy til forsiydan boyroq erakanis isbotladi, tilimizning leksik, sinonimik va boshqa ko'p-ko'p lisoniy fazilat-u imkoniyatlarini ilman ko'sratib berdi.

## MILLIY MAFKURA ASOSCHISI

Navoiy – o'zbek adapbiyotidagi eng mafkuriy qalam sohibi. "Xamsa" qay bir ma'noda siyosatnomaga ham. Shoир butun ijodi bilan amalda temuriyalar davlatining milliy mafkurasini yaradti. Temur markazlashgan davlat tuzdi. U hukmonlik turkiyalar qo'lida bo'lgan bu davlat xalqining mafkurasini yaratib ulgurmadi. Umri ot ustida o'tdi. "Temur tuzukları" shu yo'lida bir urinish edi. Navoiy yaratgan milliy mafkuraning esa uch asosi bor.

Birinchisi – Navoiy nimaiki yozgan bo'lsa, o'z oldiga: "Komil inson qanday bo'lishi kerak?" degan masalani qo'ydi va bunda boshdan oxir isom dini va uning bag'rida paydo bo'lib, taraqqiy etgan tasavvuf ta'limotining eng ilg'or g'oyalariiga tuyandi.

Ikkinchisi – Navoiy nimaiki yozgan bo'lsa, o'z mansub bo'lgan o'zbek xalqining manfaatlari, baxt-u iqbolini ko'zlab yozdi.

Uchinchisi – Navoiy nimaiki yozgan bo'lsa, o'zi yashayotgan mamlakat, ya'ni temuriyalar manfaatlarni himoya qilib yozdi.

## BIRDAMLIK

Navoiy shunday buyukki, uning xohlagan asarini bugunning ko'zi bilan o'qisangiz, kechagi fikringiz o'zgaradi.

Kamina 50 yildan beri navoiyshunoslik bilan shug'ullanib kelaman. Fanlar akademiyasining O'zbek tili, adapbiyoti va folklori institutidagi ish boshlaganman. Lekin endi Navoiyini har gal o'qisam, uning yangi-yangi qirralari ochilib kelaveradi. Nima uchun? Chunki biz hali Navoiyini to'liq o'rganganimiz yo'q-da.

Endi davlat siyosati miqyosida Navoiy merosiga munosabat boshlandi. Buyuk shoir bugun O'ze-

kistonga sig'maydi ham. Uning merosiga turkiy xalqlarni birlashtiruvchi buyuk ta'lomitni yaratgan zot sifatida qarashimiz kerak.

Endi ilm va ma'rifatni xalqning maqsadi, ehtiyoji, manfaatiga aylantirishimiz kerak. Navoiy shu yerda ham bizga Uchinchi Renessans asoslarini qurish uchun eng katta suyanchiq, buyuk fenomen bo'lib xizmat qiladi.

Dunyo bizning Navoiyga munosabatimizga havas bilan qarayapti va ma'naviy yuksalishga qaratilgan maqsadlarimizga qo'shilayti.

## TURNALAR UCHSA, QARAYLIK...

Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat..."ida islom olami tarixi uchun muhim burlish bo'lgan bir qiziq hodisa qalamga olingan.

Avliyo Zunnun Misriy shunday degan ekan: "Uch bor safar qilib, uch ilm keltirdim. Birinchi keltirgan ilmimni xos kishilar ham, omma ham qabul qildi. Ikkinci ilmimni xoslar qabul qildi, omma qabul qilmadi. Uchinchi ilmimni na xoslar qabul qildi, na omma".

Bu yerda birinchi ilm tavba, ikkinchisi tavakkul, muomala va muhabbat, uchinchisi esa haqiqatni anglatadi. Haqiqat ilmi, ya'ni inson ruhining Alloha yetishini odamlarning aqli qabul qila olmas edi. Lekin hijriy 245-yili Zunnun vaftot etganida ko'p yashil qushlar g'ub bo'lib kelib, janoza mahali odamlar ustiga soya solib boradi. Buni ko'zlar bilan ko'rgan xalq Zunnunning haqiqat haqidagi gapiga ishonadi. Shu tariqa Xudo avliyo zotlarni do'st bilishi, ularga karomatlar berishi mumkinligini isbotlaydi.

Avliyo haq. Qur'on Karimda avliyolar Allah taoloning o'tstari ekani ta'kidlangan oyatlar bor. Ming-ming yashil qushni Xudo do'stining janozasiga yuborish bilan shu sirining bir chekkasini oshkor qilgan.

...9-fevral. Ertalab. Navoiy shahridagi shoirning muh-tasham haykali oldida tadbir bo'lyapti. Osmonda to'rtta turna paydo bo'ldi. Balandda – odamlar boshlari uzra halqa bo'lib aylanib-aylanib parvoz etdi-da, keyin yana uzoqlarga uchib ketdi.

Turnalar yurtimizdan bir yilda ikki karra uchib o'tadi. Bahorda janubdagisi issiq o'lkalaridan shimoldagi salqin o'lkalarga, kuzda esa shimoldagi salqin o'lkalaridan janubdagisi issiq o'lkalarga safar qiladi. Ammo hozir bahor ham, kuz ham emas.

Ehtimol, Navoiyning ruhi Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy, Sulton Husayn ruhlari bilan birga turnalar bo'lib kelib ketgandir...

Balki bu O'zbekistonimizda yuz berayotgan ma'naviy yuksalish, jumladan, Navoiyga ko'sratilayotgan yuksak ehtiromdan rizolik alomati hamdir...

## DASTURIY TA'LIMOT

Bugun Turkiy davlatlar tashkiloti Yevrosoyida muhim nufusiga ega bo'lib boryapti. Bu tashkilot oldida umumiy birlikka erishish, shu orqali rivojlanish, dunyoning madaniyati, adapbiyoti, san'ati, ishlabi chiqarishi, sanoati va hokazolari taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish vazifasi turibdi. Bu yo'lda Navoiy merosi bizga juda asqatadi. Chunki boshqa, tarixda turkiy xalqlar birligini ta'minlashda asqatib, mafkuriy asos sifatida qo'l keladigan tap-tayyor ta'lomit yo'q. Shu ma'noda uning merosiga turkiy xalqlar birligi g'oyasini amalga oshirishdagi dasturiy ta'lomit sifatida suyanishga to'la haqilimiz.

Bu fikrimizga hech bir turkiy xalq vakili e'tiroz bildirmasa kerak.

Sultonmurod OLIM,  
filologiya fanlari doktori,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Erkin A'ZAM,  
O'zbekiston xalq  
yozuvchisi:

– Har qanday bayramning zamrida o'yinkulgi-yu dabdbadan tashqari teran bir ma'no-mazmun, kela-jakka tafiydigian muayan samara ham bo'lsa qani edi!

Kuni kecha Navoiy shahrida kechgan buyuk bobomizni sharaflash kunlari ana shunday hikmatlarga boy, ibratlari o'tdi, desak bo'ladi.

Yaxshining sharofati, o'sha kungi qor-yomg'ir ham tantanavor ruhga daxl qilolmadi. Shoir haykali poyiga gul qo'yish marosimidagi jo'shqinlik, hayajonni aytling!

"Bobomizni qarang, bu yog'i erta-indin bahor edi, sal keyinroq tug'ilganlaridami..." deganek hazilomuz mulohazaga xorijlik bir navoiyshunos ajab javob qildi: "O'zi barcha bobolarmi sovuqda tug'ilib, sovuqda o'tgan. Yuragidagi o't-otashni esa siz-u bizga, avlodlarga coldirgan".

Chindan ham, yaqin olti asr kechganiga qaramay ana shu so'mmas alanga umrini Navoiy ijodi tadjiqiga bag'ishlagan uzoq-yaqindagi ko'plab olim-u muxlisni shoir nomi bilan sarafroz shahr-u kentga boshlab keldi.

Violyat hokimi Normat Tursunovning hazrat Navoiy dahosiga ehtirom marosimini an'anaga aylantirib,

har yil bu yerda o'tkazish to'g'risidagi taklifi qizg'in ma'qullangan shundan. Navoiy kunlari Navoiy viloyati Navoiy shahrida o'tishi har jihatdan mantiqqa rost keladi-da!

Xosiyat  
BOBOMURODOVA,  
O'zbekistonda  
xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi:

– Hazrat Alisher Navoiyning tabarruk nomlari bilan ataluvchi shaharning to'rtala tonomidan qarasangiz ham ul zotning mahobatli haykali qad kerib, ko'rinib turadi. Xudidiki, navoiyliklar qalbin qo'rib turganga o'xshaydi. Go'yoki:

*Yuz jafo qilsa manga, bir qatra faryod aylamon,  
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod ayloram,  
– deb turgandek.*

Aslida notinch duno qalbin ezgu fikrlar qorishgan SO'Z qo'riydi. To'rt tonomidan izlasangiz ham, Mir Alisher Navoiyning so'zlaridan ortiqroq so'z yo'q!

*Tovlarda cho'liqlar molin qo'riydi,  
Erkaklar elining holin qo'riydi,  
Kelmanin o'yiga xavf-u xatar dilin qo'riydi,  
Shoirlar elining dilin qo'riydi.*

Prezidentimizning Alisher Navoiy dahosini qadrash borasidagi qarori xalqimiz qalbidagi ixlos-u e'tiqodning yorqin ifodasi bo'ldi. Hazrat tug'ilgan kunda xorijlik navoiyshunoslar, poytaxtdan tashrif buyurgan olmlar-u shoirlar, mahalliy aholi vakillari gul ko'tarib, shoir haykali yonida qoim bo'ldilar. Boboshoir poyi qishni pisand qilmay gullab bilan to'ldi.

Bir kun avval xalqaro simpoziumda navoiyshunos olmlar shoir ijodining kamalak misoli tovlanguvchi qirralari haqida go'zal suhbat qurishdi. Yana ming yil aytilsa ham hazrat Navoiyning bitiklari tugamasligi ayon haqiqat.

Violyatda amalga oshirilayotgan yangiliklar, fan-tehnika sohasidagi yutu

IFTIXOR

# EL SHOD, MAMLAKAT OBOD BO'LAJAK

Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi munosabati bilan Navoiy shahrida "Alisher Navoiy va Sharq Renessansi" IV xalqaro simpoziumi bo'lib o'tdi. Anjumanda dunyoning turli hududlaridan, shuningdek, viloyatlar hamda poytaxtda ijod qilayotgan ko'plab ziyolilar qatnashdi. Ular orasida men ham bor edim.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalqaro simpoziumi ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida: "Jahon adabiyoti va tafakkuri tarixida o'chmas iz qoldig'an Alisher Navoiyning serqirra ijtimoiy-siyosiy, ijodiy, ilmiy-ma'rifiy faoliyat, boy adabiy-badiiy merosi asrlar davomida yuksak insonparvarlik, vatanga sadoqat, adolat va ezzulik timsoli sifatida hamisha jahon ahli e'tiborini tortib kelmoqqa", degan so'zlar bor. To'g'risi, ikki kun davom etgan xalqaro simpoziumda har bir ishtirokchi Alisher Navoiy xususida o'zining so'zlarini aytmox istadi. Ayta olmaganlar tafakkuri ko'zini ichkariga-



ko'nliga yo'naltirishdi. Bunday vaziyatda chin ma'nodagi yurak so'zi bунyod bo'ladi. Zotan, insoniyat ma'naviyati xazinasiga beqiyos hissa qoshgan alloma shoir Alisher Navoiy o'zining beba bo umrboqiy asarlari bilan jahon ilm va adab ahlining qalbidan chucur joy olgani haqiqatdir. Hazrat ta'rifida o'z zamonasidan to hozirgi kunga qadar juda ko'plab dono fikrlari aytildi va kelgusida aytilejaj ham. Hazrat o'zining ma'rifikat va ma'naviyat ko'shkining darvozاسini tinimsiz taqillatayotgan orasta qalbi insonlarga ochadi, xolos. Ilm va ijod ahli Alisher Navoiyning ko'ngil holatlari va dard-i amalarini angloqniyatiда halilhamon shu muhtasham koshona ostonasida turibdi. Dunyo ilm va adab ahlining nazari Navoiy siyosiga qaratiganining o'ziga xos sabablari bor.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hazratlari hamma zamonlar uchun benihoya baland bir ijodkordi; har vaqt o'z ijodiy mashg'uloti bilan band bo'lgan ijodkor va eng muhim, bu olamga kelib-ketarini, Yaratganga qulligini butun borlig'i bilan har soniyada sezib turgan banda ijodkordi. Bunga aslo shubha yo'q.

Hazrat Navoiy "olam ahli"ni o'tkinchi manfaatlardan yuksak turishga, ezzulik yo'lida birdam bo'lishga chorladi, insoniylikning eng oliy ruttbalarini tarannum qildi. Bashariyat oldida bebaboh xizmatlar qilgan Alisher Navoiy yugurk vaqt amplitudasini badiyi so'zning olmos simlari vositasida jilovladi. Ammo bu jilovlangan zamon qiyimatini "o'chamoq uchun oltindan taroz-u, olmosdan tosh oz" (G'afur G'ulom satr) qildi. Bir lahma ichiga cheksiz zamon zamzamaralarini faqatgina Navoiyning quadrati qalami sig'dira oladi. Bu qalamanan chiqqan so'z oddiy so'z emas, balki jahon so'z san'ati galaktikasini bezab turgan, har bir adabiyot muhibi yuragidan naqqosh Moniy naqshlaridek joy olgan, jonbaxsh tiriklik suvi bilan to'yingan so'zdir...

Faqirlik hayot tarzi uchun dastur bo'lgan hazrat Navoiy o'z muhriga muhrlagani "Dunyoda g'aribdek yoki bir yo'lovchidek bo'lgin" hikmatiga tugal amal qilib yashadi, tasavvurimizcha. Kamtarlik, xokisorlik, "o'zini tufroq bilan teng tutish"ga oid o'gitlariga eng avval shoirning o'zi amal qildi.

Alisher Navoiy asarlari umroqyligining asl sababi, bu alloma behuda, vasvasa, yolg'on so'z aytmadni, "so'z vodisiya daydig'an"ni hushlamadi, shu zaydal go'zal asarlari, siyari va suvrati bilan insoniyatga ta'lim berdi. Ruhiga ta'sir ko'ssatdi, ma'naviyatini tarbiyaladi.

Dunyoning turli hududlarida yashab ijod qilayotgan navoiyshunoslar xalqaro anjuman minbarida turib shu xususda fikrlari bayon qildi. Fikrlari muhim, xilma-xil, gohida takror, ammo biri ikkinchisini to'ldiradigan nuqtayi nazarlardir.

Shaxsan men anjumanda Alisher Navoiy hazratlari ijodiga jadid ziyolilarining munosabati xususida bir-ikki og'iz so'z aytishim lozim edi. Shu mavzu muhokamasi asosida jadidlar qaysi jihatga jiddiy e'tibor qaratdi? Nega shoirning hayoti va ijodi targ'ibi bilan mashg'ul bo'lishdi? Nega "Navoiyini sevaylik, Navoiyning otini oltin bilan yozaylik", deb qayd qilishdi?

Bahodir KARIM,  
professor

## NAVOIY HAYKALI POYIDA O'QILGAN SHE'R



**Bedirxon AHMEDLI,  
Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasining Nizomi  
Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti  
Osyo xalqlari adabiyoti bo'limi mudiri, professor:**

- Bu kabi simpoziumlar o'zbek xalqining buyuk shoir, mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyga bo'lgan yuksak hurmat-u ehtiromini ifodalaydi. Chunki Navoiy o'zbek xalqining ma'naviy qiyofasini belgilab beruvchi yetuk siyomdir. Uning ilmiy-adabiy merosini o'rganish ishlari hozir butun dunyoda jadal olib borilyapti. Xususan, men faoliyat ko'ssatayotgan kafedrada ham bu borada ishlari juda qizg'in tus olgan. Har yili ayni mavzuda qator kitoblar chop etiladi, maqlolar yoziladi, ilmiy-amaliy ishlari qilinadi. Nazarimda, Navoiy shaxsi va ijodiga nisbatan bu qadar yuksak e'tibor va ehtirom, albatta, O'zbekiston qatori faqat Ozarbayjonda ko'ssatiladi. O'zbek xalqi atoqli shoir va mutafakkir Nizomi Ganjaviy qanchalik ulug'lasa, Ozarbayjon xalqi ham Alisher Navoiyning shu qadar sevib-ardoqlaydi. Navoiyning barcha asarlari ozarbayjon tiliga tarjima qilingan. Bu kecha yoki bugun boshlangan ish emas, buning ildizi uzoq moziyga borib taqaladi. Bizda buyuk o'zbek shoirining deyarli barcha asarlari tarjima qilingan deb faxr bilan aya olaman. Ayni damda Navoiyning uch tazkirasini ozarbayjon tiliga o'girish ishlari ketmoqda. Avvaloq, o'zbekcha "Xamsa" tarjima bo'lgandi. Umuman olganda, Navoiy o'ongan asrlar mobaynida nafaqat o'zbek va ozarbayjon xalqining, balki butun turkiy xalqlar madaniyatiga barakali hissa qo'shgan. Institutimizdag Turk xalqlari adabiyoti kafedrasida olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'ssatadiki, Alisher Navoiy qoldig'an boy adabiy




meros nafaqat Ozarbayjonda, balki, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston va dunyoning bir qator yirik mamlakatlarda o'rganilmoqda. Navoiy shahrida o'tkazilgan simpoziumning nomidan ham ma'lumki, g'azal mulkining sultoni hisoblangan ulug' mutafakkir butun sharq madaniyatiga va ma'naviyati, tarixi va ijtimoiy hayotiga juda ulkan ta'sir ko'ssatgan. O'yaymanki, agar Navoiy hazratlarining insonparvarlik ma'rifikatini butun dunyo xalqlarining ong-u shuuriiga singdira olsak edi, olam ahli bir-biriga dushman bo'lmas, Yerimiz tom ma'noda baxt-u saodat sayyorasiga aylangan bo'lardi.



**Derya SOYSAL,  
Tarixchi, jurnalist, Belgiyada  
Orta Osyo bo'yicha mutaxassis:**

- Avvalo, bu mening hayotimdagagi eng go'zal kunlardan biri ekanligini alohida ta'kidlab o'tishni istardim. Mazkur simpozium orqali faqatgina Alisher Navoiyning emas, o'zbek xalqi va adabiyotini qaytadan kasfh etdim. Haqiqatdan ham o'zbeklar insonparvar, qalbi qaynoq, mehmondo'st, san'atsevar xalq sifatida



**"Navoiy ijodi muzeysi ko'rgazmasi ham, tarixning parchasi ham emas. U yashamoqda va yashayveradi. Biz uni o'rganyapmiz, ammo juda kam o'rganyapmiz. O'zining ulug' farzandi xotirasini ko'z qorachig'iday asrab-avaylash va uning asarlarini tinmay o'qish va o'rganish – o'zbek xalqining shon-sharaf ishidir."**

**Y.E.BERTELS**

## AXIR NAVOIY BOR...

So'z ochsam, o'zbekning mahobatidan, Muqaddas bir ism tilimga yordir. Baxt yog'ar bu so'zning salobatidan:

- Axir, Navoiy bor! Navoiy bordir!

Kimdir moziyini deb itday talashar, Mening, ortga boqsam, ko'nglim bahordir. O'tmishdan so'zlamoq menga yarashar – Axir, Navoiy bor! Navoiy bordir!

Asrlar bostirib kelmoqda qator, Xudo qo'lllaganga mangulik xordir: Vaqtning tahdidlari o'zbekka bekor – Axir, Navoiy bor! Navoiy bordir!

She'r aro yuribman dalli-devona, Magar mag'lub ersam – arzimas kordir: Nazm falagiga yetmas paymona – Axir, Navoiy bor! Navoiy bordir!

Xudoyo! Nechun she'r o'qiyapman sha'n, Nechun ohanglarim mardonavordir? Chunki She'r bo'stoni menga ham Vatan – Axir, Navoiy bor! Navoiy bordir!

Usmon AZIM




## Boshianishi 1-sahifada.

Otobekning "Boburnoma" mutolaasi "O'tkan kunlar" ildizi ustida fikrashiga, tasvirdagi ichki manera, so'zdar rostlik, xarakter mantig'i, inson shakli-shamoyili, ayniqsa, romanning poetic nutqi – tili to'g'risida ayrim mulohazalar aytishga imkon beradi. Tasavvur ko'lami "Boburnoma" matnistonni bo'ylab kengayadi. Adib boshqa asarlarida ham bu muazzam kitob va uning egasini eslaidy. Boburga "fotih" – fath etuvchi sifatini beradi; "Boburnoma"ni "Boburning keng ruhlik, o'z zamoniq'a ochuq fikrlik..." kitobi deydi. Qurdoshlar bilan bahslashgan bir masalada "Boburnoma"dan "dalillar kel-turmak"ka chog'lanadi. Tarixiy manbalardan ma'lumki, qatag'on – "dapsan" yillari Abdulla Qodiriy ikkinchi marta qamoqqa olinganida kutubxonasiagi yetmishdan ortiq arab imlosida yozilgan mumtoz kitob yig'ishtilradi. Shular qatorini "Boburnoma"ning olib ketligani aniq.

Xo'sh, nega Abdulla Qodiriy va "O'tkan kunlar" mavzusidagi fikr yo'lli Bobur va "Boburnoma" tarafga burilmoqda? Nima uchun Qodiriy ijodidan, asarlar, tarjimayi holi, xotira kitoblari, qodiriyshunoslarning asarlaridan Bobur va "Boburnoma" izlarini izlab qoldik? To'g'risi, real vogelik zamirida tug'ilgan mitti intuitsiya – ichki sezim yangi fikrga zamin hozirlaydi; odam beixtiyor tafakkur oftobida pishib yetilgan bitta mulohazani dalilash va unga boshqalarni ishontirishi istaydi. Adabiyotshunoslik Abdulla Qodiriy romanlarining shuhrati, ta'sir kuchi, tasvir tiniqligi, tilining shirasiga urg'u berdi. Zotan, bunday fazilatlar ildizini ham tadqiq etish lozim. Iste'dodli adibning o'zbek, rus va jahon adabiyotidan, xalq og'zaki ijodi va xalqning jonli tilidan bahramand bo'ldi. Bunga shubha yo'q. Fikrimcha, ushuh bahramandlik ilidizining bir qurasi "Boburnoma"ga borib taqaladi. Shuning uchun "Boburnoma" bilan "O'tkan kunlar" orasidagi poetik bog'lamni o'zarो taqqoslashga zarurat seziladi. Abdulla Qodiriy epik tafakkur tarzi, nasrinring badii jozibasi, go'zal tili qupu-qurru sahroda o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. Tekis sahroda haybatli tog' o'sib chiqishi uchun o'sha yer ostida qaynoq vulgor buloqlari bo'lishi shart. "O'tkan kunlar" romani uchun "Boburnoma" shunday buloqlardan biri vazifasini o'tagan bo'lsa, ne ajab!?


## "UMR – OTILG'AN O'Q EMISH"

Har qanday asardagi hayot va o'lim, ishq-muhabbat, turmush ziddiyatlari, insonlararo to'qnashuvlarning bayoni hech kimni befarq qoldirmaydi; umr mazmuni, jon qadri, dunyoga kelish va ketishga tegishli hayotiy hikmatlar esa badiiy asarning falsafiy mazmunini boyitadi. "Boburnoma" va "O'tkan kunlar" sahifalari shunday o'gtildan xoli emas. "O'tkan kunlar" romanida oradan o'tgan yillarda suroniga boqib Mirzakarm qutidori: "Umr – otilg'an o'q emish" deydi; aslida umr mazmuni ustida fikrlamaydigan, hayot mohiyatini o'ylab ko'rmangan odam kam bo'ladi. Zero, Vatan, ona, ishq-muhabbat, hayot, o'lim, sadoqat, do'stlik, insonning dunnyoga qarashi badii ijodning dominant mavzulari sanaladi. Rus adibi Lev Tolstoyning: "Agar inson fikrashni o'rgangan bo'lsa, niman niyo'lashidan qat'i nazar – u hamisha o'lim to'g'risida fikr yuritadi", mazmuni gapi bor. Jon qadrini, sinovli dunyo o'tkinchilagini, imthonni, o'linni eslash – O'zi va o'zligin anglanan orif insonga xos fazilat. Boburning boshiga turli ko'rgilklar yoy'ilib, omad undan yuz o'girgan va dashmani Ahmad Tanbal odamlari iziga tushib ta'qib etgan, shoir o'z ta'biri bilan aytganda "ish tadbirdan o'tgan" kunlarning birida u: "Olama jon vahmidin yomonroq nima bo'lmash emish" deb yozadi. Boburning "Boburnoma" asaridagi iqrorlari, haqgo'yligi, tipirchilab turgan yuragini o'qvichiga qo'shqq'llab tutqazishiga doir realistik tasvirlari dunyo adabiyotidagi juda ko'p asarlardan benihoya yuqori turadi. Bobur o'zini, yuragini, yuzini, a'molini, so'zini, amalini, ko'zini pardalamaydi. Ikkilanishini, andishasi, g'azabini,



# "BOBURNOMA"

## O'QIYOTGAN OTABEK



ko'ngil g'ulg'ulasi va bezovtaligini ochiq yozadi. Shar'an qaralganda, kundalik namoz ibodatlari bilan ma'jun iste'moli, odamning aql-hushini oladigan chog'ir, may ichishning bir inson filtratida jamlanishi maqtaladigan ijobi yislat emas. Bobur bu shar'iy hukmni har kimdan yaxshi biladi. Shuning uchun yonidagi sheriklarini chog'irga ham, ma'junga ham majburlamaydi; na ortiqcha dag'dag'a, na da'vat qiladi. Holbuki, u o'zining chog'ir majlislari-yu ma'junxo'rligini ham, tonglasi sabuhiy qilishlarini ham bermalol sir tutishi mumkin edi. Uni taftish qilishga, qalami qitirlib yozayotgan "Vaqoye"ni kuzatib turishga guvohlarining yuragi betlasmas edi. Bobur Yaratguvchining "samiun basir", "kulli shayun qodir"ligiga, barcha ishlarni "kiromin kotibin" maloikalar amal daftaraiga allaqachon yozib qo'yaniga inonchi bois haq so'zlarni bitadi. Butun ayb-u gunohni, ezzugil-u odamiyligini, barcha tavba-yu tazarrularini bor holicha bayon etadi. To'g'risi, qiyosning ikkinchi egasi mavlono Abdulla Qodiriyning o'z qo'lli bilan yozgan bunday tarixiy iqrornomalari, kundaliklari yoki o'z tabiatiga oid e'tiroflari yo'q hisobi. Adibning "Suddagi nut'i", zamondoshlarining xotiralarini, Habibulla Qodiriyning "Otam haqida", Mas'ud Abdullayevning "O'tganlar yodi" kitoblarida bu xususdagi ayrim ma'lumotlar uchraydi, xolos. Biroq tasavvurimizcha, Bobur bilan Qodiriyning tabiatida, poetik tafakkur tarzida, adabiy-estetik tushunchalari, odamiyligi va borliqni ko'rishida qandaydir yaqinlik bor. "O'tkan kunlar"da yozuvchi: "Darhaqiqat, bizning qarshimizga yo'llars chiqsa, biz qattiq qo'rquamiz, chunki bizni o'lum kutadir, inson uchun dunyoda o'lumdan qo'runch narsa yo'q", deydi. Adib kelgusi voqealarni o'qvichiga oldindan sezdirishning maxsus adabiy usulini qo'llabmi yoki ichki bir tuyg'u da'vati bilanmi, hartugul, Kumush oxirgi maktubida onasiga: "Manim bo'lsa nima uchundir yuraginda bir yo'rquv bor...", deb yozadi. Voqealar rivojidan qo'rquv siri ochildi, zaharlangan Kumush "jomga o'qchib qusar edi". Aybodor Zaynab Yusufbek hoji hovlisidani haydaladi, akalari uni kishanlab qo'yishadi. Jinnirgani qozi va tabibrilar tomonidan tasdiqlangach, jinoyati uchun jazolanish hukmi uning ustidan ko'tariladi. Zaharlanish hodisisi podshoh Bobur hayotida ham yuz beradi. Hind oshpazlari qo'lidan zaharli osh yegach, uning ko'ngli behuzur bo'ladi. Bu to'g'rida: "Obxonag'a

borguncha yo'lda bir navbat qusayozdim. Yana bir navbat qusayozdim. Obxonag'a borib, qalin qustum. Hargiz oshdin so'ng qusmas edim, balki ichganda ham qusmas edim", deb yozad u. Aybodorlar jinoyatiga yarasha jazo oladi: birining terisi tirkilayin shilinadi; yana bir aybodor filning oyoqlari ostiga tashlanadi. Bir o'llimdan qolgan Bobur go'yonan qayta tug'ilgandek bol'adi. "Tengri menga boshin jon berdi", deya shukrona aytadi u. Jon xalqumga kelib ketgan bunday vaziyatlarda inson uchun joni aziz ko'rinadi. Shunda umr mazmuni, tirkilik ne'mati ustida o'yaydi. Bobur iqroran yozadi: "Jon mundoq aziz nima emish, muncha bilmas edim, ul misra borkim: Kim o'lar holatqa yetsa, ul bilur jon qadrini..." Aslida inson hayoti ijtimoiy-ma'naviy, ruhiy-moddyi va boshqa ziddiyatlar hamda murakkab holatlar asosiga quriladi; o'zini va o'zligini anglaganlar fursatni g'animat bilib, oxirat kuni uchun ozuqa jamlaydi; savol-javobga hozirlik ko'radi. Chunki Bobur ta'biricha, "har kimki hayot majlisiga kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichkisidur va har kishikim, tirkilik manziliga ketibtur, oxir dunyo g'amxonasidin kechqusidur". Tirkilik va o'limga oid "hayot majlisiga" kelib-ketishning hikmatona ifodasi juda tig'iz va qarshilash usulida beriladi. Shu gap davomidan Bobur barchaga mashhur "...dah aro qoldi falondon yaxshilig" misralariga moslab juda muhim yaxotiyat qayshidir. "O'tkan kunlar"da o'zining hayoti mazmuni o'yayotgan Yusufbek hoji deydi: "Men ko'b umrimni shu urtuning tinchlig'i va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim... Bobolarning muqaddas gavdasi madfun Turkistonimizni oyoqosti qilishg'a hozirlang'an biz itlar yaratguchining qarhiga, albattra, yo'liqarmiz! Temur Ko'ragon kabi dohiyarning, Mirzo Bobur kabi fotihlarning, Forobiy, Ulug'bek va Ali Sino kabi olimlarning o'sib-ungan va nash'u namo qilg'anlari bir o'lkani halokat chuquriga qarab sudrag'uchi, albattra, Tigrining qarhig'a sazovordi". Hoji besh kunlik umrida "dunyo mojarolaridan etak silkib to'shai oxirat tadoriki"ni ko'rishga o'zida rag'bat va zarurat sezadi. Darvoqe, Abdulla Qodiriy tirk mahalida o'z Vatani va millatiga bo'lgan sevgisi,

haq gapi, egzu amali va bebaho asarlar evaziga hojiga o'xshab o'ziga azob-uqubatlar, tuhmatush'ontonlar orttirib oldi. Ammo adibning favqulodda jasorat egasi ekani ham, bu mardona fazilat qahramonlari tabiatiga ko'chgan ham bor gap. Shu o'rinda uch dashmani bilan bir o'zi olishing Otabekni yoki dor ostida o'limga tik qarab turang Anvarning o'tkir ko'zlarini eslash o'rinni, albatta, "Haqiqat, ochib so'zlashdadir" hikmati hayotiy dasturi bo'lgan adib "Suddagi nutq"da o'sha mustabid davrning "odil sud"iga qaratasi: "Men to'g'rilik orqasida bosh ketsa, "ix" deydig'an yigit emasman... Ko'ngilda shamsi g'uboroti, teskarichilik maqsadi bo'lmagan sodda, go'l, vijdonlik bir yigitga bu qadar xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha, ma'naviy o'lim bilan o'diridim. Endi jismoniy o'lim menga qo'rqinch emasdir", deb aytadi. Keyingi hibs tergova: "Menga qo'yilgan abylnarni boshdan oyoq rad etaman. Haqiqat yo'lida har qanday, hech qanday jazodan, qiyonqdan qo'rquamayman. Agar otmogchi bo'lsalaring, ko'krugmani kerib turaman...", deb mardon sa'zlaydi. Xuddi shundan mardona tuyg'u, haqqoniyat, favqulodda jasorat, ulkan shiojat Bobur umriga, "Boburnoma" matniga nur bag'ishlaydi. Uning fotihligi, elobodchiligi, bag'rikengligi, do'st-dushmanlariiga ko'rsatgan muruvut, ayniqsa, farzanidan joni ham aymamagan uzoq moziyining o'chmas haqiqati. O'g'li Humoyunning dardiga hakimi hoziqlar "...yaxshi nimarsalarni tasadduq qilmoq kerak" deb tashxis qo'yishadi. Bobur "Humoyunning mendin o'zga yaxshiroq nimarsasi yo'q" fikriga keladi va uch marta o'g'lining tegrasida aylanib aytadidi: "...men ko'tardim har ne darding bor". O'shal zamon men og'ir bo'ldum, ul yengil bo'ldi. Ul sihat bo'lib, qo'pti. Men noxush bo'lib, yiqildim". Bunday vaziyatda Haq bilan avlyiosifat inson orasidagi pardalar ko'tariladi. Toza yurakli otaning chin duosi Tangi huzuriga o'q boradi va ijbot bo'ldi. Bobur o'limni mardona bo'yiniga oladi. Bobur nasrida ifoda yo'sini juda qisqa, kam so'zga ko'p ma'no yuklanadi.

Qiyoslanotgan asarlardagi bunday o'rinalarga har ikki adib shuuridagi tabiy sezim va tuyg'ular ifodasi, imon-e'tiqodi qalam egalaringin bayon usuli sifatida qarash o'rinnlidir. Qolaversa, zamonga mos o'lchamlar izmida qahramonlarning harakat qilishi hamda ularning tafakkur va tasavvuriga uyg'un ifodalaniishi ham har qanday asarning qadrqiyatini oshiradi.

## YAXSHI KITOB – UMR ZIYNATI


Bobur va Abdulla Qodiriydek allomalar yozgan kitoblar esa insoniyatning ma'naviy mulki. Odamlarning madaniy-ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy darajasini ular o'qigan kitoblar belgilaydi. Taqdir Alisher Navoiyning 6-7 yoshida "Zafarnoma" mualifli Ali Yazdiya ro'baro' qiladi. Mo'ysafid tarixchi bilan bola Alisher o'tasida savol-javob bo'lib o'tadi. Shunda mo'ysafid alloma boladan



**Bobur fe'li-sajiyasiga ko'ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan.**

Eduard XOLDEN,  
ingliz tarixchisi

## TAVSIYA



O'tmisht voqealari, tabarruk tarixiy insonlardan ibrat va saboq olinadi. Har kim ularni o'z hayotiga tatbiq etib, hayot yo'lini fayzli, turmush tarzini farovon qiladi. Odatda shoir ahlining o'zlarini maqtashi, birovlardan ozgina yaxshilik ko'rsa, ularni madh etishini ko'pchilik yaxshi biladi. Agar kimdir shoir ko'ngliga tegsa, hajv nayzasini ko'tarib, so'z maydoniga chiqadi va masxara she'rlar tug'yonida ilhom qaynaydi. Bunga adaptov tarixida yetarlichka misollar topiladi.

Shorilar o'zları aytgan so'zlarga amal qilishlari, amal qilmagan gaplarini she'rga solmaganlari ma'ql. Shoir – hissiyor odami. Agar u mustahkam iymon-e'tiqod va taqvo egasi bo'lsa, qalamidan tomgan bir qatra siyoh ortidan shaxsan o'ziga keladigan savob, jamiyat va bashariyatga keladigan foyda hamda yaxshiliklar daryolar-u dunyolarga sig'maydi. Qalam-

kash zarur mahali o'rni kelganda har qanday odamga – xoh u gado yo xoh u podshoh bo'lsin – o'z yurak so'zini, haqiqatni aytishga imkon topmog'i lozim. Bu chin insonlik, chinakam iste'dod egasining mardligi va mahoratidan darak beradi. Tarixa bunday ijodkorlar ham ko'p o'tgan.

Ijad ahli orasida yana bir toifa bor. Ortiqcha vaysashlar, o'rnisiz so'zlashlari, so'ralmaganda gapga aralashuvlari gohida ularni ofatga yo'liqtiradi. Bularni yozishimiga sabab shuki, yaqinda yaxshi bir kitob o'qidim. Avval bilmagan va eshitmagan ekanman, balki siz azizlar uchun ham foydali bo'lishini o'ylab o'sha o'qiganimidan ibratlari bir nuqtasiga to'xtalaman.

Zahiriddin Muhammad Boburning xalq-chil ijodi, mardona hayoti, insoniy fazilatlari ko'pchilik uchun qiziq. U o'z davri ijodkorlar bilan munosabatlarini "Boburnoma"da bayon qiladi. Ammo bu muhtasham kitobda uchramagan tarixiy bir voqeaga

Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" tazkirasida duch keldim. Unda yozilishicha, o'sha zamona shoirlaridan biri, o'zbek adabiyoti tarixiga "Qissayi Sayfulmuluk" asarining yozuvchisi bo'lib kirdan Majlisiy Boburga bag'ishlab qasida yozadi. Maqtosh har Kimga yoqadi. Jumladan, qasida Boburning ta'biga xush-ma'qul keladi va shoirga shu maqtovli she'ri uchun yetti ming tanga in'om qilmoqchi bo'ldi. Biroq shu orada allaqanday sabab bilan Bobur yodiga.

"Miskin chig'atoysi, kunduzi tundur anga, Ahvoli parishon qora kundur anga. Mag'rur bo'lib yer yuziga sig'mas erdi, Sichqon teshugi emdi ming oltundir anga", – degan ruboij kelib qoladi. Bobur Majlisiyden: "Muhammad Solih bu ruboyni nima sabab bilan aytgan ekan-a?" deb so'raydi. Majlisiy shu ruboij ham Boburga

o'qigan kitoblarini so'raydi. Navoiy "Mulk" kacha ta'lim organini aytadi. Shoiring bolaligida "Mantiq ut-tayr"ni yod bilgani barchamizga ma'lum. Tabiiyki, tarixiy kitoblardagi bunday ma'lumotlar tarixiy shaxslar ma'naviy dunyosini ko'rsatadi; ular qiyofasiga mahobat bag'ishlaydi. "Boburnoma"da o'z davrining mashhur akobirlariga baho berilar ekan, ular yozgan yoki o'qigan kitoblar esga olinadi. Alisher Navoiyga ajratigan betlarda alloma shoir "Xamsa", "Lison ut-tayr", "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoye ul-vasat", "Favoyid ul-kibar", "Mezon ul-avzon" kabi barcha asarlar sanab o'tiladi. Bobur "Boburnoma"da Alisher Navoiydan boshqa biror shaxs ta'rifida bunday "ko'b va xo'b" – keng ko'lamli to'xtalgan emas.

Otasi Umarshayx Mirzoni ta'riflar ekan, yozadi: "Ravon savodi bor edi. "Xamsatay" va masnaviy kitoblarini va tarixlarni o'qr edi. Aksar "Shohnoma" o'qr edi. Tabi nazmi bor edi, vale she'rga parvo qilmas edi". Zamondoshlaridan ba'zilariga "Hamisha Mus'haf kitobat qilur edi" deb ham ta'rif beradi. Umuman olganda zarurat yuzasidan qaysi bir mashhur ulamo yoki tarixiy joy ta'rif jarayonida "Sahibi Buxoriy", "Hidoya", "Temurnoma", "Fathnama", "Zafarnoma", "Iskandarnoma", "Shohnoma" kabi mo'tabar kitoblar esga olinadi. Buning natijasida o'sha inson yoki maknonning ta'rif-tavsiifi teranlashib, ularga tegishli tasavvur oydinlashadi. Memuar asarda tarixiy ma'lumot sifatida bunday unsurlarning mavjud bo'lishi tabibiy. Biroq dunyo adabiyotidagi badiiy asarlar tarkibida eslanadigan mashhur kitoblar muayyan badiiy funksiyani bajaradi. Inchunin, Otabekning "Boburnoma" o'qishi bejiz emas. Abdulla Qodiriy boshqa qahramonlarni ham ma'lum va mashhur kitoblardan nasibador qiladi. Deylik, Yusufbek hojiga Qur'on "Daloyil ul-xayrot"ni, oshiqqlarga Fuzuliying "Devon"ini o'qitadi. Ra'nesi esa Navoiy, Fuzuli, o'zlariga zamondosh shoirlardan Amiriy bilan Fazliy Namongoniyi o'qigan.

Qodiriyning ikkinchi romanı "Chayonning namoyishi" fasilda masjidagi hujralardan bire tasviri keladi. Hujra tokchasiga arab tili grammatikasi "Kofiya"ni sharhlagan Abdurahmon Jomiyning "Sharh mulla Jomiy" asari, hoshiyasida diniy hukmlar izohlangan "Aqoida ma'alhavoshi", mantiqqa doir "Hikmatul ayn", Marg'ioniyning "Alviqoya", Rasululloh (s.a.v.) hayotini yorit



## YODNOMA

# “UNUTMOG‘IL YANA BU NOMUROD BOBURNI...”

Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk allomalar qatorida Zahiriddin Muhammad Bobur ham nafaqat millatimizning g‘ururi va iftixori, balki butun insoniyat tamadduniga hissa qo‘shgan daho sifatida tilga olinadi. O‘z vaqtida kommunistik mafkura shunday ulug‘ siymoga ham necha asr berida turib tosh otishdan tiylimdi. Uning buyuk ijodiy merosi esa sinfiy manfaatlar oldida arzimas deb hisoblanardi. Buning aksini isbotlamoqchi bo‘ganlar millatchilikda ayblanardi. Shuning uchun ko‘pchilik uning nomini tilga olishdan ham qo‘rqardi. Shunday murakkab vaziyatda – 1958-yilda Andijonda Mirzo Bobur tavalludining 475 yilligiga bag‘ishlangan anjuman o‘tkazildi. Unda ishtirok etganlarning jamoaviy surati saqlanib qolgan. Rasmida Ibrohim Mo‘minov, Azizxon Qayumov, Xadicha Sulaymonova, Sabohat Azimjonova, Abdugodir Hayitmetov, G‘afur G‘ulom, Toshmuhammad Qori Niyoziy, Yahyo G‘ulomov va xalqimiz orasida katta obro‘-e-tibor qozongan yana bir qator ziyyolilarni ko‘rish mumkin.

Suradta mening dadam – Abdumannob Egamberdiyev (kitobxonlar uni “Sariq ajdar hamlas” tarixiy romani muallifi sifatida yaxshi bilishadi) ham kamtarona joyda, uchinchi qatorda tushbidi. U kishi 1957-yili 29 yoshida Andijon davlat pedagogika institutining rektori etib tayinlangan edi. Albatta, o‘sha anjuman atogli ilm-fan vakillari, adabiyot va muzaniyatimiz namoyandalar, shoir fuzulolarimizning xohish-irodidas va qat‘iy talablar bilan o‘tkazilgan. Lekin tadbir Andijon pedagogika institutida o‘tkazilishida rektorning qarori hal qiluvchi rol o‘ynagan o‘z-o‘zidan ayon bo‘lsa kerak. Ma‘lumki, o‘shanda teperdan “Mirzo Boburning yubileyini o‘tkazishga kim ruxsat berdi?” degan dagdag‘a yog‘ilgudek bo‘lsa, malomat toshlari birinchi bo‘lib rektorning boshiga tushardi. Lekin endigina karyerasini boshlagan, kelajakka yaxshi niyatlar bilan boqib turgan yosh Abdumannob Egamberdiyev bunday “xatarli” ishga qo‘l urishdan qo‘rqmadni.



## TADQIQ VA TANQID UCHUN TASHAKKUR!

“Jadid” gazetasida teatr mavzusi davom etadi. Ikrom Bo‘riboyevning keng qamrovli “Teatr: u hozir ham ibratxonami?” (2025-yil 3-soni) nomli tahsilidani keyin Xurshid Abdurashidning “Sahnadagi malikul kalom: fazilat va kamchiliklar” (2025-yil 6-soni) maqolasingining berilishi ayni muddaa bo‘ldi.

Ilmiy ishning publisistik uslubga o‘g‘irigan parchasida Alisher Navoiy obrazining o‘zbek teatr sahnasidagi talqinlar tadqiq qilinadi. Obyekt sifatida spektaklning asosi bo‘lmish pyesalar tanlangan.

Hazrat Navoiyga bag‘ishlangan dramalar ro‘yxatining keltirilgani umumiyo manzarani tasavvur qilishga yordam beradi. Asosiy qismida 12 ta sahna asarining matni xolis tanqid qilinadi. Tanqid saralamoqdir, degan mumtoz qoida ishga tushadi.

Baholash va sharhlashda muallif o‘tgan asr ijodkorlarini ham, zamondoshlarini ham ayamaydi. Dramalar yaratilgan zamon va makon xususiyatlarini nazardan qochirmaydi. Drama-turgular ixtiyoridan tashqaridagi massalalar uchun malomat toshini otmaydi.

Bugungi O‘zbekiston teatri va matbuoti mana shunday dadiq chiqishlarga muhitoj. Tanqidiy-tahliliy fikrlar spektakl muhokamasida qolib ketmay ommaga taqdim etilsa, tomoshabning didi ham sayqallanib boradi.

Ba‘zan o‘zbekona andisha munaqsidarni og‘ir ahvolga solib qo‘yadi. Ijod



Anjuman nihoyatda yuqori saviyada o‘tkaziladi. Bundan jamaatchilikning dimog‘i chog‘ edi. Tadbir yakunida anjuman ishtirokchilar uchun Andijon musiqli drama teatrida konserт uyushitiriladi. El orasida keng tanilishga ulgurgan iste‘dodli xonanda Faxriddin Umarov shu sana munosabati bilan Bobur Mirzoning “Jamoling vasfini, ey oy...” g‘azaliga kuy bastalab, ilk bor ijo etgan. Shunda dadam sahnaga chiqib quydigi so‘zlarni aytagan ekan: “Bobur bu go‘zal g‘azalini yozib, kamon o‘qlariga o‘rab fazoga otgan ekan. U muallaq uchib yurib besh asdan keyin Faxriddin Umarovning qo‘liga kelib tushbidi. Mana, bugun biz Boburning go‘zal g‘azalini yangidan kashf etdik”.

Kezi kelganda oilamizdagi ta‘limtarbiya haqida to‘xtalib o‘tsam. O‘zim aniq fanlar sohasi vakiliman. Lekin bolalikda dadam qalbimda adabiyotga havas uyg‘otgan. “Temur tuzuklari” ilk bor “Guliston” jurnalida chop etilganida butun oila jam bo‘lib o‘qigannim. Ba‘zan hovlida ishlaganimizda dadam oldimizga kelib, Erkin Vohidovning “O‘zbegim” va boshqa she‘rlarini baland ovoz bilan o‘qib berardi. “Boburnoma” bilan ham men ilk bor o‘shanda tanishganman.

Abdumannob Egamberdiyevning “Bul yurak dog‘indadur” kitobida millatimizning ardoqli farzandlariga bag‘ishlangan qator g‘azallar bor. Xususan, u kishi Mirzo Boburning “Topmadim” radifli g‘azaliga nazira bog‘lab shunday degan:

*Sendan ortiq elsevar bir mehribonni topmadim,*

taxmis usulida yozilgan muxammas aruz vaznining o‘zbek tilidagi san‘atida yangi so‘z bo‘ldi.

Bobur Mirzo bilan bog‘liq yana bitta muhim mavzvu bu – Andijon pedagogika institutiga uning nomini qo‘yish uchun kechgan oshkor-pinchon kurashlardir. O‘sma kezlarda KPSSning yoshlar orasida mafkuraviy ishlarni kuchaytiresh siyosati jiddiy tus olgan edi. Shuning uchun 1953-yilda Markazqo‘mnинг maxsus qarori bilan Andijon o‘qituvchilar bilim yurti negizida Andijon davlat pedagogika instituti tashkil etilgandan keyin unga “VLKSM 30 yilligi” nomi berilgan edi. Bobur tavalludining 475 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar muvafqiyatlari o‘tkazilganda keyin jamaatchilikning institutga uning nomini berishga qaratilgan sa‘y-harakatlari ham kuchaygan edi. Dadam bu borada viloyat va respublika rahbarlar bilan qizg‘in bahslashgani esimda. Bu nihoyatda qiyin ish bo‘lishiga qaramasdan dadam qat‘iyat bilan harakat qilib, o‘z maqsadiga erishdi: oly ta‘lim dargohiga Zahiriddin Muhammad Bobur nomi berildi.

1980-yillarning o‘rtalarida, mamlakatda “o‘zbek ishi” deb nom olgan qatag‘on tufayli tang vaziyat vujudga keldi. Shunda ayrim laganbardorlarning ko‘rsatmalari bilan institutga “VLKSM 30 yilligi” nomi qaytarildi.

Nihoyat, mustaqillik sharofati bilan Andijon pedagogika instituti negizida Andijon davlat universiteti tashkil etildi va unga buyuk hamyurtimiz nomi berildi. Uzoq kutilgan adolat nihoyat qaror topdi!

Boburning insonparvar g‘oyalardan cho‘chigan, adabiyotdan uzoq, hissiz amaldorlar allaqachon unut bo‘lib ketdi. Bobur Mirzo meroasi esa hanuz barhayot. Uning olamshumul ijodi nafaqat o‘zbek xalqiga, balki butun insoniyatga yuksak ilm-fan va mukammal adabiyot namunasida sifatida xizmat qilib kelmoqda. Zero, shoiring o‘zi kelajakka qarata aytagan:

*Murod vasling erur – ayla yod Boburni, Unutmog‘il yana bu nomurod Boburni!*

**Shuhrat EGAMBERDIYEV, O‘Z FA Astronomiya instituti direktori, akademik**

## MUXAMMAS

Jamoling vasfini, ey oy, necha eldin eshitg‘aymen, Alar yanglig‘ misolingni necha ellarga aytg‘aymen, Xayolimda malaksimyo go‘zal rasmimg yaratg‘aymen, Muhabbat koridan ayr-u yumushlardinki kechq‘aymen, Ne kun bo‘lgay, visolingga meni dilxasta yetkaymen.

Farog‘at chog‘i gulzorda o‘zing tanhomi yurg‘aysen, Malohat gullariga ham raqobatlar yeturg‘aysen, Javob tarzi savolimga na holing debki so‘rg‘aysen, Tarahhum yuzidin yuzingni ko‘rmoqqa buyurg‘aysen, Xush ulkim, orazing ko‘rg‘amen-u so‘zing eshitkaymen.

Demasmen, ey xumor ko‘z, sen menga zulmingni kam-kam qil, Ki, zulming rohatim bo‘lg‘ay, sira kam qilmagin, zam qil, Xayolim bog‘lading bundoq, yana boshimni ham xam qil, Ittingdurmene, soching zanjirini bo‘yning mahkam qil, Ki, vodiyi firoqing ichra qo‘rqarmenki, yitg‘aymen.

Tarahhum qilmasang yo boqmay, istig‘no bila o‘tsang, Nigoh aylarga qo‘ymay, ko‘zlarim yuzingga zor etsang, O‘zing shodsen, meni g‘urbat aro tashlasang-u ketsang, Vafoni va‘da qilmay, ming jafolar dog‘i ko‘rsatsang, Tazarru qilg‘amen yo yig‘lag‘aymen, o‘zga netkaymen?

Musharraf bo‘lmasam bormoqqa men qosh-u qabog‘ingga, “Muborak” so‘zlarim yetmas esa hargiz qulog‘ingga, Munosib ko‘rmasang Mannop yuzini ko‘z qarog‘ingga, Muyassar bo‘lmasa boshimni qo‘ymoqlik ayog‘ingga, Olib boshimni, ey Bobur, ayoq yetguncha ketkaymen!

**Abdumannob EGAMBERDIYEV**



## JAHON AYVONIDA

### UCHRASHUV SAUDIYA ARABISTONIDA BO‘LIB O‘TADI

Donald Tramp Rossiya prezidenti Putin bilan telefon orqali suhbatdan so‘ng Oq uya jurnalistlarga ularning Ukraina bo‘yicha uchrashuvni Saudiya Arabistonida bo‘lib o‘tishini aytdi.

Jurnalistlar bilan suhbatda T r a m p , shuningdek, Ukrainianing NATOGa a’zo b o ‘ l i s h i n i m a q s a d g a a muvoqif deb hisoblamasligini va uning fikricha, Kiyevning Rossiya nazorati ostida bo‘gan barcha hududlarni qaytarishi “imkon yo‘q” ekanini aytdi.



### MAFIYAGA QARSHI YIRIK OPERATSIYA

Italiyada huquq-tartibot organlari Sitsiliya mafiyasiga qarshi yirik amaliyat o‘tkazib, Palermo shahrida Koza Nostra uyuşgın jinoi tuzilmasining 180 nafr a‘zosini qo‘iga oldi.

Politsiya ma‘lumotlariiga ko‘ra, agar bolalardan hech bo‘limganda bittasi olti yoshdan kichik bo‘lsa, bu farq 53 foizgacha boradi.



Tadqiqotchilar bundayadolatsizlikning sabablarini sifatida “ayollar ishi” deb hisoblandadigan sohalardagi past maoshlarni va bola parvarishi davorini ko‘rsatishmoqda.

Twitterni 9,74 mlrd, dollarga sotib olishimiz mumkin’.

Mask ham “OpenAI”ning hammuassisini bo‘lgan, biroq 2018-yilda kompaniyani tark etgan. U “OpenAI”ning tijorat maqsadlariga o‘tishiga qarshi chiqib, kompaniya va Altmanni sudga bergan. Uning fikricha, “OpenAI” “Microsoft”ning yopiq kodli sho‘ba kompaniyasiga aylanib qolgan va kompaniyani yana ochiq dasturiy ta‘minotga qaytarish vaqtiga kelgan.

### AYOLLAR 44 KUN KO‘PROQ ISHLASHI KERAK

Nemis olimlarining hisob-kitoblariga ko‘ra, ayollar erkaklar kabi daromad qilishi uchun yiliga 44 kun ko‘proq mehnat qilishlari lozim ekani.

Ish haqlari o‘rtasidagi farq 40 foizni tashkil etib, farzandlar tug‘ilganda bu farq yana yetti foizga oshadi.



Ma‘lumotlarga ko‘ra, agar bolalardan hech bo‘limganda bittasi olti yoshdan kichik bo‘lsa, bu farq 53 foizgacha boradi.

Tadqiqotchilar bundayadolatsizlikning sabablarini sifatida “ayollar ishi” deb hisoblandadigan sohalardagi past maoshlarni va bola parvarishi davorini ko‘rsatishmoqda.

### ARMANISTON VA YI

Armaniston parlamenti “Armaniston Respublikasining Yevropa Ittifoqiga a‘zo bo‘lish jarayonini boshlash to‘g‘risida”gi qonun loyihasini birinchini o‘qishda ma‘qulladi.

Tegishli qonun loyihasini Milliy Majlisining 63 nafr deputat yoqlab, yetti nafari qarshi ovoz berdi. “Armaniston” muxolifat fraksiysi ovoz berishni boykot qildi.

Tashabbus yakuniy tarzda ma‘qullangan taqdirda, mamlakat hukumatni Yevropa Ittifoqi bilan Yevropa integratsiyasi jarayonining “Yo‘l xaritasi”ni muhokama qilishni, keyin esa mamlakatda referendum o‘tkazishni rejalash-tirmoqda.

Otabek BAKIROV





# “MARD YIGIT EDI... JUVONMARG KETDI”

Boshlanishi 1-sahifada.

Usmonxon Eshonxo'jayev  
(1899-1938)

U Moskvadan turib Toshkentga, O'rta Osiyo byurosi raisi I.A.Zelen-skiga yo'ilagan xatlarida, o'tkir publisistik maqolalarida, anjuman, qurultoylarda nutqlarida istiqlol ruhidagi fikr-g'oyalarni baralla ayta oлган. Mustabid sovet tuzumi haybarakkallachilar uning istiqlol yo'lidagi iibratlari kurashini tan olganlar.

Usmonxon avvaliga eski usul maktabida, so'ngra rus-tuzem maktabida tahsil oлган. O'sha kezlardayeq u eski maktabning qoloqligini his etgan, dunyodagi taraqqiyot shamoli hali u yashayotgan makonga yetib kelmaganini anglab yetgan. 1914-1917-yillarda Andijondagi yashirin "Ittihodi va taraqqiy" tashkilotining faol a'zososi, keyinchalik "Milliy ittihod" tashkilotida faoliyat ko'satgan. Andijondagi progimnaziyada dars bergan. "Typkestan'se slovo", keyin "Typkestan'skiy golos" gazetalarida ishlagan. "Maorif havaskorlari" jamiyatini ochlarga yordam beruvchi "Qizil yarim oy" jamiyatining hududiy bo'lmini tashkil etgan.

1920-yili Moskvada Kommunistik universitetda, 1925-1930-yillarda esa Qizil professorlar institutida o'qib, falsafa bo'lmini tamomlagan.

Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi hay'at a'zososi, davlat ilmiy kengashi raisi, Turkiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi matbuot sektori mudiri, tashviqot va targ'ibot bo'limi mudirining o'rinosari va bo'lrim mudiri lavozimlarida ishlagan.

U bir qator matbuot nashrlarida - "Turkiston", "Qizil bayroq" gazetaları hamda "Inqilob", "Bilim o'chogi" jurnallarida muharrirlik qilgan. Qahramonimiz aynan bosma nashrlar orqali xalqni uyg'otishga bel bog'ladı. Usmonxon yogzagan maqolalarida johillikni qoralar, xalqni mudom ilm-ma'rifaqtiga chorlardi. Tabiiyki, bunday fikrlar

hukmron tuzumdagilarga yoqmas, uning har bir maqolasi ortidan kuzatuvchilar paydo bo'lar, sirli tahdidlar uyuştilirildi. Biroq tahdidlar uni zinhor cho'chitmas, ortga chekintirmsa, qaytanga kuch berar, o'z maqsadi yo'lida yanada qat'iyyat harakat qilishga undardi.

Turkiston Kompartiyasi organi - "Qizil bayroq" gazetasi 1922-yil sentyabrida "Turkiston" deb qayta nomlangach, shunga bag'ishlab gazeta muharriri Usmonxon Eshonxo'jayev maqola e'lon qiladi. 23 yoshli o'zbek yigit maqolada shunday yozgan edi: "Turkiston buyuk ijtimoiy o'zgarishlardan so'nggina ozodlikka chiqadi, ammo bu ozodlik faqat nomigaginadir, bizning inqilob - bu faqat formadir, to'la ma'nodagi ozodlikni biz hozir ham ko'mayapmiz". Shu haqqoniy fikr oradan 8 yil o'tib, 1930-yil iyunida bo'lib o'tgan O'zbekiston Kommunistik (bolsheviklar) partiyasi V qurultoy minbarida turib ayovsiz tanqid qilingan.

Usmonxon Eshonxo'jayev 1926-yili O'zbekiston Kompartiyasi Marказо'mining rasmiy yig'ilishida yer-suvin islohotini shunchaki texnik tadbir deya xarakterlab, bu

bilan u yer-suvin islohotining sotsial mohiyatini va proletariating qishloqdagagi kapitalistik unsurlar bilan sinifiy kurashini inkor etadi.

Usmonxon Eshonxo'jayev va uning yaqin do'sti Inoyat Shomuhamedov o'sha yillarda "... Dehqonlar sovetlarning kuchiqtiqisodiy ekspluatasiysi ostida yashamoqda, qilayotgan mehnati uchun to'la taqdirlanmayapti, o'z mahsulotini davlatga haqiqiy bahosidan juda ham arzon narxda bermoqda, buning natijasida dehqonlar doimiy ravishda muhujilikda va ochliqda qolmoqda", deb bir necha marta aytgan.

Taniqli jadid, "Milliy istiqlol"ning faol a'zolaridan biri Salimonov Tillaxonov 1930-yil 12-apreldagi tergovda "Katta tashkilot", "Milliy istiqlol", "Turk odami markaziyati", "Mussovdep", "Ittihodi va taraqqiy" tashkilotlari haqidagi ma'lumotida "Turk odami markaziyati"ning 78 a'zososi qatorida Usmonxon Eshonxo'jayevni ham qayd etgan. "Nashri maorif" tashkiloti 1923-yildan 1926-yilgacha "Gap" shaklida faoliyat ko'sratgani, uning a'zolari orasida Munavvar qori Abdurashidxonov, Saidnosir Mirjalilov, Tolibjon Musabeyov, Mamon Ramziy, Cho'pon, Muhiddin Usmonov, Majid Qodiriy, Hamidulla G'aribxonov, Abdulla Xo'jayev, Usmonxon Eshonxo'jayev, G'anxon Hamidxonov, Shokirjon Rahimi va boshqalar borligini aytgan. "Nashri maorif" markaziy qo'mitasi 7 a'zosidan biri Usmonxon Eshonxo'jayev bo'lgan.

1937-yil 10-avgustda tergovchi buyuk shoir, tolmas kurashchi Cho'lpondon ham Usmonxon Eshonxo'jayev to'g'risida ko'sratma olishga urinadi. Holbuki, shoirning o'zi-da o'sha payti hibsdan edi. Ana shu chorasis vaziyatdan foydalaniib qolishga uringan tergovchilar shoirdan unga maslakdosh, birga xizmatda bo'lganlar haqida tuhmatona ko'sratmalar berishni

talab qilgan. Cho'pon esa hamshahri, maslakdoshi, do'sti (gazeta va jurnallarda u bilan birga ishlagan, Andijondagi taraqqaqiparvarlar tashkilotida ham birga bo'lgan) Usmonxon haqida vijdon amriga qarshi bormay, zinhor tuhmatona fikr bildirmagan.

Shunchaki o'sha vaqtda qatag'on mashinasи allaqachon "fosh" etgan masalalardan tashqariga chiqmay, aytса-aytmasa farqi yo'q, arzimas ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Deylik, "Milliy ittihod" tashkiloti o'z yig'ilishlarini "gap"ga to'planish ko'rinishida o'tkazib turgani, bu yig'ilishlarda tashkilotning taniqli rahbari, xususan, Munavvar qori Abdurashidxonov, Obidc Mahmudov, Abdulhay Tojiyev, Usmonxon Eshonxo'jayev ishtirot etgani haqida ko'rsatma bergan. Yoki Usmonxon tashkil etgan va muharrirlik qilgan "Inqilob" nomli o'zbek tilidagi jurnala o'zining, G'oz Yuusov, Fitrat va boshqa taniqli aksilinqilobchilar, panturkchilarining asarlari doimiy bosilib turgani to'g'risida aytadi (Rossiya Federatsiyasi Federal xavfsizlik xizmati axrivida saqlanayotgan Usmonxon Eshonxo'jayevning shaxsisi ishidan).

...1937-yil Qozon shahrida istiqomat qilib turgan Usmonxon Eshonxo'jayev qamoqqa olinadi va Toshkentga keltiriladi. Bu yurt o'glonining boshiga ham boshqa vatanparvar millatdoshlarining kuni tushadi. U hali Qozondalik chog'ida qamoqqa olinmasdanoq Toshkent turmasidagi mahbuslardan so'roq yo'li bilan uning "jinoysi"ni tasdiqlovchi guvohlar ko'rsatmalarini tayyorlab qo'yilgan edi.

1937-yil 1-noyabrdagi Usmonxon Eshonxo'jayev Toshkentda birinchi bor tergov qilinib, oradan bir yarim oycha vaqt o'tib (1937-yil 16-dekabrda) uning ishi bo'yicha ayblov xulosasi tayyorlanadi. Unda Usmonxon Eshonxo'jayev Moskva o'quv yurtlaridagi o'zbek talabalari,

o'quvchilar orasida sovetlarga qarshi millatchi tashkilot tuzib, uni boshqargani qayd etiladi. Bu tashkilot o'z oldiga yosh millatchi, aksilinqilobchi xodimlar tayyorlash vazifasini qo'yanligida ayblangan.

1938-yil 4-oktyabr. Ko'plab milliy xodimlarimiz, ziyyolilarimiz kabi Usmonxon Eshonxo'jayev ham qatag'on qilichidan o'tkazildi. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasi hay'ati qarori bilan O'zbekistonning eng ko'zga ko'ringan tanqli davlat, hukumat, jamoat tashkilotlari, el-u yurt, vatan taraqqiyoti taqdiri yo'lida jon kuydirgan 52 nafr shaxs otuvga hukm qilindi. Ular orasida endigina 39 yoshta to'lgan Usmonxon ham bor edi. Hukm o'sha kuni kechqurun ijob etildi.

Haqiqat yo'lidiagi kurash hech qachon yengil bo'lmagan, unga bel bog'lagantlar zinhor unutilman. Garchi sovet hukumati Usmonxon Eshonxo'jayev nomini tilga olishni taqiqlab, uning qarindosh-urug'i, yaqinlarini mudom tahlikada tutgan bo'lsada, lekin norasmiy davralarda, to'y-to'ychiqlarda u millat qahramoni sifatida eslanar, odamlar "halol, millatparvar, mard yigit edi, ha, esiz, juvonmarg ketdi", deb nadomat bilan bosh chayqab qo'yishardi...

Ha, qalbi va ongi, butun vujudi, aq-q u zakosini millat manfaatiga tikkan insonlar nomi yurakdan o'chmas va unutilmasdir. Hozir Andijonda viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy marказi taniqli jadid, siyosiy arbob Usmonxon Eshonxo'jayev nomi bilan ataladi. O'zbek xalqi o'zining Usmonxon Eshonxo'jayev kabi ziyo, ma'rifatparvar, millatparvar farzandlari bilan haqli ravishda faxrlanadi.

**Rustambek SHAMSUTDINOV,  
tarix fanlari doktori,  
professor**

XOTIRA AZIZ

**QATAG'ON****QURBONLARI**(Davomi.  
Boshlanishi o'tgan sonlarda).

**Mamasharif Karimov** - 1882-yili Marg'ilon shahrida "Jufterak" mahallasida tug'ilgan. Eski maktabda o'qigan. Hunarmand to'quchvi bo'lgan. Marg'ilon shahri Qalandarxonha uchastkasida volost boshqaruvchisi, shahar dumusi va Qo'qon muxtoriyati a'zosi, "Milliy ittihod"ning hudo-di faol rahbarlaridan bo'lgan. Bosmachiilida aloqasi bo'lganlikda abyliban, 1920-yili Marg'ilonda favquloddha komissiya tomonidan hibsga olingan. Ammo Farg'ona viloyati rahbariyati Shomansur Alixo'jayev va Inomjon Xidiralyev tomonidan ozod etilgan. "Milliy ittihod"ning topshirig'i bilan partiya direktivasini buzib qulqlarini o'z himoyasiga olganlikda, Marg'ilondagi aksilinqilobiy tashkilot "Azadayev"ning rahbarligida shahar sovetiga bo'lgan saylov vaqtida Marg'ilon ko'chalari bo'ylab sovetlarga qarshi targ'ibot-tashviqot olib borganlikda, Fayzulla Xo'jayevni maqtaganlikda ayblangan. Mama-sharif Karimov 1937-yil 13-sentyabrdagi Marg'ilonda hibsga olingan. Tergova una nisbatan bir qancha savol-javoblar va qiyonqalar qolilangan. 1937-yil 27-noyabrdagi Mamasharif Karimov aksilinqilobiy faoliyati uchun 10 yil qamoq jazofiga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 13-sentyabrdan hisoblangan.

1939-yil 11-dekabrda NKVD Zangiota 3-turmasidagi 204775-soni mahbus Mamasharif Karimov tegishli joylarga 7 marta xat bilan murojaat etgan, ammo natija bo'lmagan. 1941-yil 27-mayda Davlat xavfsizligi xodimi Lisenkonning javob xatida Mamasharif Karimovning arizasi javobsiz qoldirilishi, uni 10 yil ozodlikdan mahrum qilish to'g'risidagi qaror o'z kuchida qolishi haqida xabar berilgan.

**Muhammedjon Abdalov** - 1890-yili Urganch shahrida tug'ilgan. 1921-yili aksilinqilobiy tashkilot a'zosi sifatida 4 yil qamoq jazofiga hukm etilgan. O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Korazm okrugi bo'limi tomonidan 13388-soni shahar qamoqqa olingan. "Milliy istiqlol" aksilinqilobiy tashkilot a'zosi bo'lganlikda abyliban, 10 yil mehnat tuzatuva lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 2-sentyabrdan hisoblangan.

**Usmon Aksanovich Abdurashidov** - 1886-yili Kuznes rayonida Aleyeva qishlog'ida tug'ilgan. Millati tatar. 1918-yildan VKP(b) a'zosi bo'lgan. Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahri Lenin ko'chasi 15-uya istiqomat qilgan. Tergov materiallarida Abdurashidov aksilinqilobiy tashkilot rahbari bo'lgani, Kattago'rg'on rayon partiya komitetining sekretari Muhammadqulov tomonidan 1936-yil yanvar oyida aksilinqilobiy tashkilotga tortilgani, uning topshirig'i ga'ra o'ziga qishlog'ida qarshi qolqalar qolilangan, quroll qo'zg'olon yo'li bilan burjua millatchi davlat tashkil etishga harakat qilgani, amalda aksilinqilobiy faoliyati olib borib bu tashkilotga sobiq ulugqlar va sovetlarga qarshi 10 kishini yollagani, aksilinqilobiy yig'indirada qatnashganji, Stalin konstitutiyasini soxtalashirish uchun kurash olib borgani kabi ayblolar aks etgan.

SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining 1938-yil 15-oktyabrdagi sayyor yig'ilishida u O'zSSR Jinoyat kodeksining 58-, 64-, 67-moddalarini bilan ayblanib, otuvga hukm qilangan. Hukm o'sha kuniyoq ijro etilgan.

**Asror Zaynuddinov** - 1886-yil Namanganda tug'ilgan. 1925-yildan boshlab boshlang'ich maktabda o'qituvchi bo'lib ishlagan. 1929-yil 22-dekabrda hibsga olingan. OGPUNing 1931-yil 25-apreldagi qaroriga asosan, RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi, 2-, 4-, 10-bundari bilan ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuva lageriga hukm etilgan. 1989-yil 30-martda reabilitasiya qilinadi.

**Azizbek MAHKAMOV, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori**  
**Nigoraxon AKBAROVA, tadqiqotchi**

(Davomi kelgusi sonda).

## YURT QAYG'USI

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Turkiston hududiga bosqini natijasida minglab mahalliy aholi, jumladan, siyosiy va diniy yetakchilar, jadidlar o'z vatanlarini tark etishga majbur bo'dilar. Ushbu muhajirlik jarayoni bir necha bosqichda kechdi va ularning har biri turli sabablar bilan bog'liq. Misol uchun, 30-yillarda avj oлgan omavviy qatag'on siyosati oqibatida minglab ziyolilar, din va vakillari va jadidlar qatl etildi yoki qochishga majbur bo'ldi.

Turkiyalik dong'il shoir Mehmet Emin Sharxan xotiralaridan quyida keltirilayotgan parcha bugungi kun yoshtalarini doim harakatda bo'lismaga undashi bilan ham ahamiyatlari.

## TAHRIRIYAT

"...O'sha paytlari dunyoning turli burchaklari tarqab ketgan qochqinlar orasida eng ko'pi Afg'onistondan qo'nim topib, yigirma-yigirma besh yilcha yashab, so'ngra ularning bir qismi 1951-52-yillarda Turkiyaga ko'chib o'tgan. Bunga qadar 1941-45-yillarda ikkinchi jahon urushi davrida omon qolgan vatanparvar jadidlar ruslarga qarshi qo'shin tuzadi. Keksalarimiz tayyorgarlikni qo'mita tuzishdan boshladi, ammo bundan xabar topgan bolshevoyerlар Afg'onistondan hukumatidan harakatini to'xtatishni talab qiladi. Shundan keyin afg'on hukumati ko'plab oqsoqollarimizni uylardan, ish joylaridan olib ketib qamadi. Ular orasida otam va qarindoshlarim ham bor edi.

Ularning oylari, yillab vaqtleri sudda o'tdi; inson zoti doshi berishi qiyin qyonoqlarni boshdan kechirishdi, uch-to'rt oy, hatto bir yilga yaqin panjara ortida qolib ketishdi. Bo'yning hech qanday ayblov ilishning uddasidan chiqisholmaganach, ozod qilishdi. Biroq bu vaqt ichida ko'plari mol-mulkidan ayrılgan, ishsiz, chorasiz qolgan otalarimiz ne qilarini bilmay sarosar edi. Shunda bir qancha yosh jadidlar o'zaro qaror qabul qilish, Turkiyaga muhajir sifatida ketishga chog'lanishdi. Afsuski, Turkiya ushbu qarorni-da, ularni-da qabul qilmadi. Bu kechimishlar 1948-yil voqealari edi.

Bir necha yil o'tgach, Turkiyada hukumat o'zgardi. Ko'pdan turk eliga ketish istagidagi yosh jadidlar ro'yxati tuzila boshlandi. Yoshtalarining ahdi qat'iy ediki, ular Afg'onistonda qolgedek bo'lsa, nainki o'zlar, balki farzandlari kelajagi, kelgusi yeti tuman ostida qolishidan xavotirda edi.

## “O'Z YERNI QO'YIB...”

yoxud mushtarak muhajirlik

Ular asli turkiy bo'lganliklari, urf-odatlari yo'qolib ketmasin uchun ham bu qarorni qabul qildilar. Yosh jadidlar boshida Abdulhakim Quyosh, Mirzo Umar Oltoy, Hoji Mahmud Ayoz, Mahmud Umar To'qin, Abdulfattah Sharqiy, G'ulom Nabi Termizi, Sabriy Sayxon, Hamid Zor va men eslay olmaydigan yana bir necha oqsoqollar bor edi.

Ro'yxat avvalida oilalar soni 50 ta edi, keyin saf kengayib 72 ta bo'ldi. To'qqiz oildan iborat birinchi guruh 1951-yili Afg'onistondan Hindiston, Karachi, Bag'dod orqali poyezdda Turkiyaning Adana shahriga k



## MA'NAVİY TARBIYA

Men ham teran ilmiy maqolalar yozsam, tadqiqotlar qilsam deyman. Biroq ijtimoiy turmushimizda shunday dolzarb masalalar borki, ularni bir chetiga surib, besh-o'n kitob va internet manbalari asosida "Bo'ri tishiga sulfat kislotsasining ta'siri" kabi hech kimga keragi yo'q, birov qiziqmaydigan mavzularda qalam tebratish mavridi emas, deya o'zimga muhim bo'lib ko'ringan mavzularga burilib ketaman. Mana, shulardan biri.

Yaqinda kursdosh do'stlarni yo'qlab Urgutga bordim. Avvalo diydor, qolaversa, shu bahona Urgutning mashhur bozorini ham aylanishni o'yagandim. Choponning yaxshisi, do'ppining zo'r Urgutda bo'lishini eshitib, sotib olib bir kiyaychi, sabil qoladigan bu dunyoda, deb niyat qilgan edim.

Safarimizning ertasi bozorni oraladik. Eh-he, narigi chetiga yurib-yurib yeta olmaysiz, buyumlarni ko'rib-ko'rib ulgurolmaysiz. Shunaqa katta! "Go'ro'g'li" dostonidagi Ravshanxon kabi "Qalpoq bozori qaydadir?" deya so'rabso'rab joyini ham topdik. Mana o'sha mashhur do'ppibozor, yonida – dong'i chiqqan to'n bozori! Yuzlab hunarmandalr yoyib tashlashibdi do'ppini. O'zlar ham ko'zko'rarga boshga qo'ndirib olishgan. Chopon degani-ku uyum-uyum, Xitojdan yuk tashiydigan bayabat "fura"lar bor-ku, ana o'shalarga bosib olib ketsangiz ham tugamaydi. Rang-barang, xilma-xil!

Rosa aylandik. Sotuvchilar ham telegramizda rosa aylanishdi.

Ammo... do'ppi ham sotib ololmay, chopon ham xarid qilolmay, bo'sh qo'l bilan, bo'shashibgina chiqib ketdik. Nimaga deng?

Odam kiyadigan emas, kiysi badani yayraydigan emas bu matcholar! Bari yolg'on do'ppi, qalbaki chopon, soxta "milliy liboslar" bo'lib chiqdi.

To'nning avrasi ham, astari ham Xitoyning sintetik gazlamasi desak, uning ichi – oraga paxta emas, "gubka" solib qavilar ekan, ya'ni yuz foiz kimyo'viy chopon. Hattoki "qavilgan" deganim ham xato, qaviq ham chevarning qo'lidan chiqmas, mashingina tikilarikan! Bunaqa to'nning saharda kiyangiz – sovgottiradi, peshin kiyangiz – qizdirib, suv-suv terlatadi. Kasal bo'lmochi bo'lsangiz, sotib oling-da, kiyaberling. Odaman manikenning farqi qancha bo'lsa, haqiqiy to'n bilan bu "chapan" orasidagi tafovut shuncha.

Do'ppilar-chi?

Bunda ham o'sha gap. Bola chog'imizda onamiz do'ppi tikkanlari yodimga tushdi: ingichka po'lat sim girdiga oppoq qog'oz tasmachasi burab o'ralar, tasmalar o'sha sim bilan do'ppi kizagidagi orasi bir millimetrit kelib-kelmaydigan qator qaviqlar ichiga kiritilar, sim teskarib burab chiqarib olingach, boyagi qog'oz o'sha joyida qolardi. Hozirgi "do'ppi"larda esa qog'oz yo'q, baxyalar orasiga baliq tutadigan "leska" shnur bor-ku, o'sha shundoq kiritib qo'ya qolinarkan. Demak, bu do'ppining hamma yog'i sintetika. Ichi-yu sirti, hatto o'tasi ham – fanderdan yasalganday qattiq, chertsangiz taqillaydi. Ustiga bir choynak choy qo'ying, qilt etmay ko'tarib turaveradi. Ammo bu "do'ppi"ni bosh ko'tara olmaydi, ko'p kiyagan odam hastalanib qolishi turgan gap. Tepasi va yonidagi ipak gullarni ham, kompyuterli avtomat "standart" qilib bir lazhada tikib tashlagan.

Ilgari har bir o'zbek yigitni o'z boshida bir san'at asarini ko'tarib yurardi – do'ppido'z ayol



oppoq ipak qatimini yuz-yuzlab marta chatib, tepadagi "qalampir" va kizak tevaragidagi "mo'nchoq" naqshlarni taglikka tikkan, ya'ni har bir do'ppining har bir nuqtasi qo'ldan o'tib, san'at asariga aylangan. Shu sababli, hatto biron juvonning ketma-ket ikkita do'ppisi ham bir-biriga to'liq o'xshamas edi. Qolaversa, har bir viloyatning, hatto har bir tumanning o'z do'ppisi bo'lardi: Andijon do'ppisi, Marg'ilon do'ppisi, Qo'qon do'ppisi, O'sh do'ppisi, Chust do'ppisi, Samarqand do'ppisi... Bolalarning tagligi yashil yo'ko'k tusli, gullari alvon do'ppilar, kattalarning qora taglikka oppoq ipak bilan naqsh solingen do'ppilar...

Manov do'ppilarning guli esa obdon chiroqli, ammo hamma do'ppi bir xil gulli – "konveyer" dan chiqqan-da. Ularni san'at asari deb bo'ladimi?

Bir mahallar "sotsialistik realizm"ga muvoqiq yozilgan badiy asarlar shaklan milliy, mazmunun sotsialistik bo'ladi, deb o'qitishardi. Ha, bu dogmalar hozir allaqaysi puchmoqlarda qolib ketdi. Biroq manov "o'zbek choponi", "o'zbek do'ppisi" ga qarasang, o'sha ta'rif beixtiyor yodga tushadi. Chunki bular ham shaklan – "milliy", mazmunun esa... hechdir. Ularni "o'zbek libosi" degan kishi yanglighadi.

Sovet zamoni milliy hunarmandchiligmizni barbos qilishga obdon uringan edi. Shoyi to'quvchilar, chevarlar, kovushdo'zlar, beshikchilar, kulollar, gilamdo'zlar... hammasi ta'qib qilinardi. Odamlar uydidi biron xona ichida yashirin xona qurvolib, o'sha nimirong'i, zax joyda atlas to'qirdi. Xuddi jinoyatchi kabi, yashirinchha sotar edi. Do'ppifurushlarni melisa ushlari, mahsido'zlarga kun bermas edi.

Beqasam choponlar, banoras to'lnar patorat topdi. Ko'kgarg'a shoyi belboq'lar girdiga arabcha yozuvda kelihshtirib bayt yo oyat bidatigan qizjuvonlar bu ishini tashlab, "fabrikani yo'lida ro'molcha topib oladigan" bo'lishdi. Odamlar palto kiyishga o'tdi, kimmindir egnida to'n ko'rsak, azador ekani, deydigan bo'lib goldik.

Istiqlol milliy san'atga, hunarmandlikka katta yo'l ochdi. Uni kengaytirishni, taraqqiy ettirishni

taqozo etdi. Hukumatimiz qariyb chorak asrdan beri milliy hunarmandchilik rivoji uchun ko'p choralar ko'rdi. Hunar ahliga beriladigan imtiyozlar yil sayin ko'paytiliyapti, bu o'rinda ularning hammasini birma-bir ayтиb tugatolmaymiz.

Hatto o'sha istibdod zamonida ham bir amallab jon saqlagan o'zbek hunarmandchiliq nima sababdan bugun patorat topyapti? Nega tobora yupqalashib, xira tortib, omonat narsaga aylanib qolayti o'zbekligimiz?

Hamma aybni "olabo'ji globalashuv"ga, bozor iqtisodiyotiga to'nkab osongina javob topib yo'q qolish qiyinmas. Chunki bundan hech kim xafa bo'lmaydi. Biroq bizningcha, buning katta bir sababi, usta va ustazodalarga yengillik, imtiyoz berish baroborda ulardan ish sifatini uncha talab qilmayotganimiz, san'at o'rniiga sanoatni pesh tutayotganliklari parvo qilmayotganimiz, qo'l hunarini barbos etayotganliklarni kor'ib turib bundan ko'z yumayotganimizdir.

Hunarmand birodarlarimiz bu imtiyozlarini shunchaki "yengillik" deb emas, balki o'z san'atlarini, ijodiy imkoniyatlarini ro'yogba chiqarishga da'vet, in'om deb bilsalar yaxshi bo'lar edi. Shunday tushunayotganlar ham yo'q emas, bor. Masalan, kulol ustalarning sopol lagan va oftobalariga qarab ko'z quvnaydi, milliy pichoqchilik yanada ravnaq topyapti.

Ammo ba'zi hunarmandlar o'z mahsulotlarini kishi sog'lig'i zyon yetkazadigan materialdan yasab yoki shunday narsalarni qo'shib tayyorlashiga indamay qarab turish o'shanday qilvirliliklarga yanada kattaroq yo'l o'chib beradi. O'ta qalin, etagi yerda suzradaligan, avra-astari sun'iy matodan bo'lgan choponni kim kiyib ko'chada yura oladi, deysiz. Bunday chopon yo do'ppigina emas, beshiklarning lokli bo'yq bilan bo'yalishi, tuvak va sumaklarni plastmassadan yasash, murg'ak go'dak yotadigan ko'rpacha va uni o'rab turadigan gahvoralarini sun'iy matolardan tikish kabi sirti yaltir-yultir, lekin bola sihatiga zarari naqd qalobliklar bor. Ular bolani ortiqcha terlatadi, terini shimmaydi, oqibatda tez shamollaydigan qilib qo'yadi. Bunaqa uchar-

maxsum kosiblarning asosiy maqsadi hunar emas, unar – pul topish bo'lib qolgan. Qandayin bo'lsa-da.

O'shanaqa mahsulotlarni "milliy hunarmandchilik namunasini" deb bo'ladimi? Menimcha, yo'q.

Ularni bartaraf etish uchun bozorda birov-yarim kosibni insofga chaqirish yoki bitta-yarimta maqola yozib, ayblab o'tirish kifoya emas. Foydasi yo'q. Birdan bir chorasi – o'shanday nobop mahsulot chiqargan "usto"lar ishini rag'batlantirmaslik. Ya'ni, o'zbek hunarmandchiligidagi sun'iy va sintetik ashyolardan narsa tayyorlanmasligidan kelib chiqib, unday mollar kishi sog'lig'i zyon yetkazishini hisobga olib, qallob hunarmandlarga eng qulay soliq imtiyozlarini joriy etishni to'xtatish kerak. Bu chora milliy hunarmandchiligmizning ravnajiga zyon emas, naf keltiradi.

Banoras, qora va ko'k satin, beqasam, abrashim ishlab chiqarishni yana yo'lg'a qo'ysak, ularning turlarini ko'paytsak, ishoning, odamlar yana qulay, yumshoq, chiroqli chopon kiyishga o'tadi, bahordan to kuzgacha boshdan do'ppi tushmaydi. Shamollamay, sog'liqlari yaxshilanadi.

Yaqinda Toshkent shahar holimi Shavkat Umurzoqov "Toshkent shahrida milliylikni keng targ'ib qilishga doir qoshimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qaror chiqardi. Bu qarorda, jumladan, davlat idoralarinining xodimlari haftaning bir kunida milliy kiyimda bo'lishlari belgilangan. Harna-da.

O'zbekman deganki odam buni alqashi kerak. O'zligimizga qaytayotganimizdan bir nishona, qutlug' mujda bu! Biroq uni hisobot berib qutulish kerak bo'ladigan yana bir "tadbir"ga, ishxonadagi stol tortmasiga buklab solib qo'yiladigan bitta do'ppi yo bir durra bilan "bajardikmi-bajardik" kampaniyasiga aylantirish kerak emas.

O'z milliy libosidan voz kechgan el ichida mangqurt ko'payadi. Mangqurt "zamonaviy odam" bo'lib ko'rindi hammaga. O'shalar kasriga xalq o'zligidan voz kecha-kecha, millat sifatida yo'qolib ketishga o'zini mahkum qiladi.

Zuhriddin ISOMIDDINOV

## TILBILIM

## TABULG'A VA TAVOLGA

Bir tabulg'a yuz bo'ldi,  
Yuz tabulg'a ming bo'ldi,  
Ming tabulg'a tuman bo'ldi,  
Bilib qo'ying: foydasi bor,  
bu yaxshi.



Yuqoridagi she'r eramizning IX asri boshlarida yaratilgan "Irq bitigi"dan keltirildi. "Qadimiy hikmatlar" kitobida berilgan izohga ko'ra, Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, tabulg'a qizil po'stloqlari daraxt bo'lib, Far'g'ona tog'laridan boshqa yerdaga uchramaydi. Mahalliy aholi undan o'q va tayoq yasashadi. Mahmud Koshg'ariyida tabulg'a so'ziga duch kelmadim, biroq tavilqu degan so'z bor. Bobomiz tavilqu so'ziga qizil tol daraxti deb izoh berganlar. Bobur ham qizil po'stloqlari degan. Rus tilida bu so'z tavolga deyiladi. "Ruscha-o'zbekcha lug'atda tavolga so'zinining tarjimasi "tobulg'i, tubulg'a" deb ko'rsatilgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa, TOBULG'I, to'bilg'i ra'noguldoshlarga mansub, tog'li yerlarda, jarliklarda uchraydigan buta o'simlik, deb izohlangan.

XIV asrda tabulg'a so'zinining tilimizda tavlug'ach shaklida qo'llangani haqida "Kitob at-tuhfa" lug'atida ma'lumot bor.

Samarqandliklar, qashqadaryoliklar va boshqalardan tabulg'a daraxti haqida so'raganimda aniq bir gap aytisholmadi.

Andijondan Durbek Qo'ldoshev yozadiki, "Hozirgi paytda (Bobur Mirzo hazratlari mehr bilan qalamga oliban) o'sha "tobulg'u yig'ochi"dan ikki tupini Andijon davlat universitetining "Botanika o'quv tajriba maydoni"da ko'rishningiz mumkin".

Eshqobil SHUKUR

## TARMOQLARDA NIMA GAP?

## UZOQDAGI QUYRUQDAN...

Uchta tog'am bor. Uchalasi ham Rossiya edi. Ikkitasi hamon Rossiya. Faqat bittasi besh-olti yilcha ishladi-yu, topganiga mol-qo'y qilib, shuni orqasidan ro'zg'or tebratdi. O'ziga shu yoqadi, moldo'xtir-da...

Ayrimlar, ayniqsa, xotini tog'amni nohsudga chiqardi, ikkita o'g'ling bo'lsa, kuching borida uy-jonyi harakatini qilmaysanmi, degan dashnomlar ostida yashadi. Lekin tog'am bitta zo'r ish qildi: bolarini o'qidi. Qiynaldi, qarz bo'ldi, kam yedi, kiyamdi, lekin o'qidi.

Esimda, ukalari tog'amning ko'zini ochirishmasdi: "Bolalarining semirganini qara, bu tengilar dala da ketmon chopyapti, non topyapti, senikilarning qo'lidan kitob tushmaydi, boqibeg'amlar, onasini qoridan tushgandan beri kursga boradi", degan malomat gaplar bo'lgan. Lekin tog'amni hech kim bilan tortishib-bahslashganini ko'rmanman. Fe'li keng odam.

Hozir o'sha qo'lidan kitob tushmaydigan o'g'illarning biri Dubayda yo'l qurilish kompaniyasida injiner, bittasi ichki ishlarda kinolog

bo'lib ishlayapti, og'ir-bosiq, xushmuomalga yigitlar. Tog'am haliyam chorbachilik bilan mashq'ul. Nima qipti, ukalardik qaram bo'lib ishlayotgani, oilasini bir yilda bir ko'rayotgani, buyragini souvuqqa oldirgani yo'q. Kichik tog'alarning esa dang'ilama uyi hanuz bitmadni. Bitmaydi. Bolalari ham o'zlarida qachonlardir akasining bolalariga namuna bo'lgandir, lekin hozir ularga faqat havas qiladi.

Tog'am otalik, erkaklik, insonlik vazifasini a'lo darajada yashab o'tyapti. Dang'illama uyiyan bor, quvonarlisi, u ota-onasining yonida bo'lib xizmatini qildi, duo oldi. Ana shunaqa bitta tog'am bor.

Oygul HAMIDULLAYEVA  
Facebook

